



JADIDLAR



ABDURAUF

Fitrat

YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



Jadidlar

Hamidulla Boltaboyev

**ABDURAUUF
FITRAT**

YOSHLAR NASHRIYOT UYI
Toshkent-2022

UO'K 821.512.133.09-3

KBK 83.3(50')

B 83

Boltaboyev, Hamidulla

Jadidlar. Abdurauf Fitrat [Matn]: risola./H.Boltaboyev. —
Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. — 144 b.

Loyiha rahbari:

Alisher Sa'dullayev

Mas'ul muharrir:

Bahodir Karimov,

filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Naim Karimov, O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi akademigi,

Rustam Sharipov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ijodiy guruh: **Qandil Boboqulov, Mehrinoz Abbosova**

Taniqli fitratshunos olim Hamidulla Boltaboyevning ushbu risolasida o'zbek jadid adabiyotining asoschilaridan biri Fitratning hayot yo'li, ilmiy-adabiy merosi yoritilgan. "Munozara", "Qiyomat", "Yurt qayg'usi", "Abulfayzxon" kabi mashhur asarlarining tahlili berilgan. Shuningdek, risoladan Fitrat domlarning hikmatlari, ulug' olimlarning u zot haqidagi e'tiroflari o'rin olgan.

Risola keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

© H.Boltaboyev, 2022

ISBN 978-9943-6682-5-6

© Yoshlar nashriyot uyi, 2022



Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".

Shavkat Mirziyoyev
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



ADIB HAYOTI

Abdurauf Abdurahim o'g'li 1886-
 Ayil (hijriy 1304) Buxoro shahrida
 Abdurahim savdogar oilasida tug'ilgan.
 Abdurauf Abdurahim o'g'lining **adabiy ta-**
xallusi Fitrat bo'lib, bu so'z tug'ma iste'dod,
 insonga Alloh bergan yaratuvchilik qobiliya-
 ti ma'nolarini anglatadi. Zamondoshlarining
 guvohlik berishicha, talabalik yillari **Mijmar**
 (cho'g'don, xushbo'y narsalar solib tutati-
 ladigan idish ma'nosida) taxallusi bilan ham
 g'azallar bitgan¹. Dastlab mahalla maktabida,
 so'ngra **Mirarab madrasasida tahsil olgan.**

Shoirning otasi savdogarchilik bilan mash-
 g'ul bo'lgan ziyoli shaxs edi. Fitratning **onasi**
Mustaf bibi (oilada uni Bibijon deb atashgan)
noziktab' ayol bo'lib, farzandlar ta'lim-tarbi-

¹ Hoji Ne'matulloh Muhtaram. Tazkiratu-sh-shuaro. —
 Dushanbe, 1975. — B. 319-320.



yasi bilan, asosan, shu kishi shug'ullangan. Onasining ta'sirida Abduraufda she'r zavqi uyg'ongan, u bolaligidanoq badiiyat dunyosiga yaqinlashgan.

1909-yil "Jamiyati xayriya"ning ko'magi bilan Istanbulga o'qishga borgan. Fitratning singlisi Mahbuba Rahim qizining eslashicha, uning ukasi Abdurahmon (o'sha paytda Kogon bosmaxonasida harf teruvchi bo'lib ishlagan) akasiga moddiy jihatdan yordam berib turgan. Fitrat Istanbul universitetida o'qish bilan birga u yerdagi "Doru-l-voizin" (Voizlar — ma'ruza qiluvchilar) madrasasida ham dars bergan. Bu madrasa Buxoro va Turkistondan o'qishga borgan yoshlarni universitet ta'limiga tayyorlash bilan ham mashg'ul bo'lgan. B.Qosimov ishlarida G'ozim Olim Yunusov bilan Hamza ham bir muddat Istanbuldagi "Doru-l-voizin" madrasasida o'qigani haqida xabar beriladi².

² Qosimov B. Maslakdoshlar. — T.: Sharq NMAK, 1994.



Fitrat Buxoroga qaytgach, usuli jadid maktablari ochish va Buxorodagi madaniy hayotni yo'lga qo'yishga shoshiladi. U haqda S.Ayniy yozadi: *"Bu orada Fitrat va Atoxo'ja Buxoroga qaytdilar. Tabiiyki, ular jadid maktablari bilan bog'lanib, o'qituvchilar tomonidan bordi-keldi qilib, maktablar ishini yaxshilash bo'yicha turli tadbirlarni amalga oshirdilar, muallif va yoshlarga maslahat berardilar"*. F.Xo'jayevning yozishicha, bunday maktablar Abduvohid Burhonov va Mirkomil Burhonovlar tomonidan ochilgan bo'lib, "ular 1919-1920-yillardagi Buxoro inqilobiy xodimlarining katta qismini tayyorlab bergan manba bo'ldi... eski tarzda jadidlarga A.Burhonov, so'l jadidlarga Fitrat boshchilik qildi"³. Nihoyat, ular murosaga kelishib, **"Yosh buxorolilar"** partiyasini tashkil qildilar, firqa qo'mitasiga A.Burhonov rais, Fitrat esa bosh

³ Xo'jayev F. Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 1-t. — T.: Fan, 1976. — B. 100.



kotib etib tayinlandi. Ular amirni tartibga chaqirish orqali Buxorodagi siyosiy va madaniy tizimni islohotlar vositasida o'zgartirmoqchi bo'ldilar. 1917-yildagi Fevral inqilobidan ruhlanib, markaziy qo'mita vakili qilib, Fitrat va Usmonxo'jani yubormoqchi bo'ldilar. Hatto Buxoro amiri Sayyid Olimxon 7-aprelda Farmoni oliy e'lon qilib, ayrim madaniy islohotlarga yo'l berdilar. Biroq Fitrat boshliq "so'l jadidlar" namoyish o'tkazmoqni rejalashtirdilar. Amir qurolli kuchlari tomonidan namoyishchilar o'qqa tutilgach, Fitrat o'z faoliyatini Samarqandda davom ettirishga majbur bo'ldi.

U Samarqandda Behbudiy tashkil etgan "Hurriyat" gazetasida muharrirlik (1917-1918 yillarda chop etilgan 26-85-sonlar) qilgan. Gazeta sahifalarida Fitratning o'ttizdan ortiq maqola, sochma va she'rlari e'lon qilingan. Gazeta yopib qo'yilgach, Fitrat yana Buxoroga qaytib, islohotlar loyihasini ishlab chiqdi...

Fitrat Toshkentga kelib avvaldan re-



jalashtirgan “Chig‘atoy gurungi” tashkilotini tuzishga kirishadi. Fitratning o‘zi bu tashkilot faoliyati haqida shunday ma‘lumot beradi: *“Turk tillarini, turk adabiyotini birlashtirish shiori ostida ish ko‘rildi. Maktablarda usmonli tili, usmonli adabiyoti ona tili darslari o‘rnida qabul qilindi. Mana shu harakatga qarshi... “Chig‘atoy gurungi” tashkil qilindi*”. Bunday so‘zlardan seziladiki, “Chig‘atoy gurungi” “panturkizm” (umumturkchilik) g‘oyalari emas, balki o‘zbek tili, adabiyoti, tarixi va san‘ati masalalariga ko‘proq e‘tibor bergan. Tashkilotning asosiy maqsadlaridan biri arab imlosini isloh qilib, o‘zbek tilining tovush xususiyatlariga mos keladigan yangi yozuv tizimi yaratish edi. Tashkilotning bu maqsadi ayni o‘sha yillarda emas, bir necha yil o‘tgach, 1921-yilgi Til va imlo qurultoyida amalga oshirildi. “Chig‘atoy gurungi” til va imlo masalalaridan tashqari, bevosita adabiyot bilan chuqur mashg‘ul bo‘lgan ilmiy-badiiy jami-

yat ham sanaladi. Bu haqda Ziyo Saidning "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar" kitobida shunday yozilgan: "Tong" jurnali "Chig'atoy gurungi" shevasi bilan davom etdi. Forsiy va arabiy tillarni chiqarib tashlashga qo'lidan kelgancha urindi... Bu jurnal Toshkentdagi Buxoro firqo'miga yaqin tursa ham, ko'pincha, nafis adabiyotga berildi", degan so'zlarini eslash kifoya. Shu bilan birga, tashkilot faollari yosh yozuvchi va shoirlarni tarbiyalash, og'zaki adabiyot materiallarini yig'ish, ommabop teatrlar tashkil etish va bu-larda xalqning tarixiy o'tmishini ulug'lovchi asarlar yaratish bilan ham mashg'ul bo'ldilar.

1918-yili Fitratni Munavvarqori yangi tashkil etilgan Turkiston Xalq dorilfununi-ga taklif etadi va u yangi o'quv yilidan Adabiyot va falsafa sho'basini (kafedrasi)ni boshqaradi. O'zbek tilida ilk darslik "Ona tili" (Shokirjon Rahimiy va Qayum Ramazon bilan hammualliflikda)ni nashr qildiradi,



ayni davrda uning bir qator o'tkir maqolalari e'lon qilinadi, "Ishtirokiyun" gazetasida mashhur "Tilimiz" maqolasi chop etiladi, "Sharq siyosati", "Yig'la, Islom" kabi siyosiy risolalari e'lon etilishi barobarida yuqorida Ziyo Said ta'kidlaganidek, "Tong" jurnali nashrida faoliyat ko'rsatadi.

Buxoroda Xalq jumhuriyati qurilgach, Fitrat davlat ishlarida faoliyat yuritishi uchun 1921-yilning 9-martida chaqirib olindi. Buxoroga kelibq Fitrat tashkilot tajribasidan kelib chiqib, Buxoro ilmiy jamiyatini tuzdi, mahalliy aholi va ulamolar hamkorligida turli qo'lyozmalarni to'plashga kirishdi. Jamiyatning "Anjumani tarix" sho'basi tomonidan yozilgan "Buxoro arki tarixi" asarini chop ettirdi. Fitrat Buxoro xalq jumhuriyatining Maorif noziri sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Buxoroda yangi usul maktablarini joriy qilish bilan birga musiqa va qishloq xo'jaligi o'quv yurtlarini tashkil qilishga erishdi. Bu o'quv yurt-

lari uchun dastur va o'quv adabiyotlari nashri bilan shug'ullandi. Shuningdek, Fitrat Buxoro jumhuriyati hamda Turkiston ASSR o'rtasida o'quv yurtlari va maktablar uchun darsliklar tuzish borasidagi ishlarga ham mutasaddilik qiladi. Iqtidorli talabalarni Turkiya, Germaniya va Rossiya shaharlaridagi yetakchi universitetlarga o'qishga yubordi. Nozirlar kengashining qaroriga binoan Buxoro jumhuriyatida turk (o'zbek) tilini davlat tili deb e'lon qildirdi. Mavjud bir necha teatr truppalari asosida Maorif xalq nozirliги tasarrufida bo'lgan Davlat teatri tashkil qilindi, teatr san'ati ishlariga rahbarlik qilish uchun taniqli rejissor va sahna ustasi Mannon Uyg'ur Buxoroga taklif etildi. 1921-yildan teatr ishlariga ko'maklashish va "Buxoro axbori" gazetasiga muharrirlik qilish uchun shoir Cho'lpon Buxoroga jalb qilindi. **Shu yili 23-sentabrda Fitrat tahriridan chiqqan "Buxoro xalq sho'rolar jumhuriyati Konstitutsiyasi" qabul qilindi.** Xalq

xo‘jaligining ravnaqi yo‘lida turli xil iqtisodiy islohot va tadbirlar o‘tkazishga rahbarlik qildi, mamlakat jug‘rofiy hududlarini belgilash, Amudaryo flotiyasining vazifalarini jumhuriyat maqsadlariga yo‘naltirish, frunzechilar tomonidan to‘pga tutilib, vayrona holiga kelgan Buxoro me‘moriy obidalari va shahar suv inshootlarini tiklash ishlariga sho‘ng‘ib ketdi.

Bu davrda Fitrat rasman Tashqi ishlar xalq noziri, Maorif noziri, Xalq xo‘jaligi kengashining raisi, Markaziy Ijroiya Qo‘mita raisining o‘rinbosari kabi mas‘ul vazifalarni bajariishi davomida milliy madaniyat va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun cheksiz ahamiyatga molik ishlar qildi. Buxoro tezlik bilan rivojlanish yo‘liga o‘tib, “markazni don va oziq-ovqat bilan ta‘minlash masalalarini ikkinchi planga surib qo‘ydi” Moskva qarori) degan taxmin bilan **1923-yilning 12-iyunida Moskvada Rossiya Kommunistlar partiyasi Markaziy qo‘mitasining “Buxoro masalasiga doir”** degan qarori qabul qilindi va ushbu qaror-

ga ko‘ra qo‘mita kotibi Ya.Ye.Rudzutak Buxoroga kelib, “davlat ishlariga o‘rnashib olgan sobiq jadidlar”ni tozalashga kirishdi. Xuddi shu davrda “o‘z mansabini suiiste‘mol qilgani va moliyaviy jihatdan kamchiliklarga yo‘l qo‘ygani uchun” Fitrat o‘zi boshqarayotgan mas‘ul vazifalardan chetlatildi.

Tez orada Fitrat sobiq ittifoq hukumati huzuridagi Buxoro jumhuriyati Muxtor vakilligi tomonidan **Moskvaga chaqirib olindi** va u yerda chiqayotgan “Uchqun” hamda “Buxarskaya jizn” kabi vaqtli nashrlar ishlariga jalb qilindi, Lazarevlar jonli Sharq tillari instituti (hozirgi Moskva davlat universitetining Osiyo va Afrika instituti)ga ma‘ruzalar o‘qish uchun taklif qilindi va u yerda **professor unvoniga sazovor bo‘ldi**. Fitrat Moskvadalik davrida (1923-1924-yillar) ko‘proq badiiy ijod bilan mashg‘ul bo‘ldi. Ayni shu yillari uning “Abulfayzxon” fojiasi, “Bedil (Bir majlisda)” nomli ilmiy badiyasi va “Qiyomat”,

“Shaytonning Tangriga isyoni” kabi asarlari yozildi. Bizningcha, so‘nggi ikki asar ruhi va uslubi jihatidan “Ilohiy komediya”ga yaqin turuvchi (N.To‘raqulov) o‘z zamonasidagi adolatsizliklarga qarshi qaratilgan, diniy mifologik syujetni qayta ishlash asosida yaratilgan chuqur falsafiy asarlar sifatida o‘rganilishi lozim.

Fitrat Moskvadan qaytib keliboq, Toshkentda yana ijodiy va ilmiy faoliyatga berildi. Uning O‘zbekiston Xalq maorif nozirligining ilmiy sho‘rosida barmoq she‘r tizimi haqidagi ma‘ruzasi, Farg‘ona, Namangan va Buxoro bo‘ylab mumtoz adabiyot durdonalarini to‘plash bo‘yicha ilmiy ekspeditsiyada ishtirok etishi, so‘ngra yaratilgan bir necha tadqiqot, maqola, darslik va qo‘llanmalari uning bu davr faoliyati eng samarali ijodiy bosqichlardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi.

IJODI





Fitrat deyarli 17 yoshidan boshlab, avvaliga diniy, so'ngra badiiy ijod va ilmiy tadqiqot ishi bilan jiddiy shug'ullandi.

SHE'RIYATI. Fitrat talabalik yillaridayoq "bir devon bo'lishga arziqli" (S.Ayniy) she'rlar yozib ulgurgan. Fitrat she'rlarining o'z yurtida nashr etilishiga Sayyid Olimxon ruxsat bermagach, **bu to'plam 1911-yilda Istanbulda "Sayha"** ("Bongso'z", ayrim manbalarda "Na'ra", "Chaqiriq" deb tarjima qilingan) nomi ostida talaba-shoirning o'z hisobidan bosilgan edi. "Vatanparvarlik she'rlari to'plami bo'lgan

“Sayha”ni o‘qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, shu bilan birga, rus hukumati ta’qib qila boshladi”. Sababi, “bu she’rlarda Vatan mustaqilligi g‘oyasi birinchi marta yorqin shaklda ifodalab berildi” (F.Xo‘jayev fikri). Bu asarlar ta’qiqlab qo‘yilganiga qaramay, Qrim va Qozon turklari, G‘arbiy Turkiston, Eron va Olmoniya kabi mamlakatlarda keng tarqaldi, jamiyatning hamma tabaqalari orasida qiziqish bilan o‘qildi.

Fitrat lirikasi nafis va buyuk Sharq she’riyatining bor go‘zalliklaridan to‘yingan, uni o‘ziga xos suratda ichdan yangilashga kamarbasta she’rlardan tarkib topganini sezmaslik mumkin emas.

Fitrat adabiyotshunos olim sifatida Sharq she’riyatining jozib xislatlarini aksariyat ilmiy asarlarida tahlil etgan bo‘lsa, shoir sifatida she’rlarida o‘sha jozibaning o‘z zamonidagi nozik tovlanishlarini ko‘rsata bildi:

Cholg'i qili sening nozli tirnog'ing-la
titrarkan,
Umidimni qoplab turgan qora bulut
yirtilsun!

Fitratning poetik merosida **“Sharq”** deb nomlangan kichik doston salmoqli mavqega ega. Unda shoir o'tli Sharqning “dardli, og'ir yaralarini yorib” ko'rsatadi:

Biroq, bu kun ezilar kim bu o'lka,
Har tomondan talanmishdir yo'lsizcha.

Shoir “o't”ni “o'txona”dagidek tasvirlash barobarida “nega bo'yla?” (nega bunday?) deb ajabsinadi, bu yaralarning ijtimoiy ildizlarini axtaradi:

Kim bergan bu og'irli o'lkaga buncha
o'tni?!
Kim to'kkan bu muqaddas ishga buncha
qonini?!

Shoir she'riyatidagi yarali Sharq mavzusi birgina bu she'rida emas, ko'plab badiiy

asarlari, jumladan, nafis lirikasida ham aks etgan. “Bu muqaddas ishda qonini to‘kkan”, yurt hurligi uchun kurashganlar qurbon berildi. Bunga sabab zamona zulmigina emas, balki avomning o‘z vatandoshlari va o‘g‘lonlari taqdiriga loqaydligi hamdir. Shoirning “Ovunchoq (Mirmuhsinga bag‘ishladim)”, **“Behbudiyning sag‘anasin izladim”** she‘riy yodnomalarida ham

Qop-qora, eski titrak

Oldimizni to‘sib turgan bulut parchasi

Kuchli bir yel ko‘rgach turmas, yirtilar, — deb umid qiladi. Biroq umidning o‘zi tanho najot yo‘li emas, shuning-chun o‘sha “kuchli yel”ni tashqaridan emas, elning o‘z farzandlaridan kutadi.

Sho‘rolar davrida chop etilgan adabiyot darsliklarini ochib qarasangiz, ularda “ashaddiy millatchilik va badbinlik kayfiyati bilan sug‘orilgan Fitratning “Mening kecham”,

Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga" nomli she'rlar yozgani" va bu "millatchilik ruhidagi asarlar"ga qarshi ruhda "Mening kunduzim" va "Tuzalgan o'lkaga" kabi she'rlar yozgani uchun Botu va G'ayratiy adabiyot tarixidan muqim o'rin olgani aytilgan. Bu she'rning nomi, mazmuni, ruhi hamon o'sha "kunduz" deb yurganimiz "kecha"ning mahobatli zulmati ostida qolib keldi:

*Kech bo'ldi, tinib bitdi tovushlar,
So'ndi butun uylarda chirog'lar,
Tebranmadi yer uzra oyog'lar,
Zulmat yana har yon oqa qoldi....
Mungli kechaning mungli chog'inda,
Ko'p mungli uyimning qirog'inda
yolg'iz ikki narsa edi yondosh-da:
Biri sham'im, biri... ko'nglim!*

Fitrat she'riyati faqatgina dardmand, o'tli she'rlar majmuasi bo'libgina qolmadi. Uning zamondoshlari to'g'ri ta'kidlaganlaridek, u

o'zbek she'riyatida yangicha tizim, barmoq vaznidagi she'r shakllariga yo'l ochdi. She'riyat boshqa millatlardan o'zlashtirib olingan vaznlardagina emas, balki turk ulusining ruhidan otilib chiqqan, millatning nutq va talaffuz tovushlariga mos bo'lgan, og'zaki adabiyotda juda ko'p qo'llanish barobarida charxlanib, sinovlardan o'tgan o'z she'r tizimi — barmoq vaznini o'zlashtirgandagina, yuksak parvozlarga chiqish mumkin ekanini o'z adabiy tajribasi orqali ko'rsatdi. Shoir nisbatan so'nggi asarlaridan sanalmish "Aruz haqida" risolasida bunday deydi: *"Barmoq vaznida she'rni boshlab Cho'lpon yozdimi, men yozdimmi, esimda yo'q. Faqat shunisi ma'lumki, barmoq vaznini nazariy jihatdan yoqlab chiqqan birinchi o'zbek millatchisi men edim"*. Yana u tajribali bir olim sifatida ogohlantirib aytadiki: *"Seni bir vaqt Fitrat boshliq bir guruh millatchilar yoqlagan edilar" deb barmoq vaznini tashlash to'g'ri emas*"¹.

¹ Fitrat. Aruz haqida. — Toshkent, 1936. — B. 20-21.



Abdurauf Fitrat o'zi muharrirlik qilgan "Hurriyat" (26-85-sonlar) gazetasi sahifalarida e'lon etilgan uchsochmasi va bir she'rini **"Yurt qayg'usi"** deb atadi. Uning she'ri

*Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi
kerakdir?*

*Nomusmi, vijdon bila imonmi
kerakdir? —*

deb boshlanadi. Yurtni mustamlakachilik azobidan qutqarmoq uchun Temur va Chingiz qoni tomirida oqib turgan yurt o'g'lonlariga murojaat qiladi, yurtni qutqarmoq uchun qon kerak bo'lsa, o'z qonini to'kib bo'lsa-da, ko'ksini qalqon qilib kurashga tushishlikni, Turon yovini quvish uchun to'fon bo'lib, arslon kabi jangga chog'lanishni tavsiya qiladi.

"Yurt qayg'usi" nomli birinchi sochmada shoir yozadi: *"Ey ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarda qolding?.. Yer yuzining*

bir necha polvonlari bo'lgan botir turklaring qani? Nechun chekindilar? Nechun ketdilar? Kurash maydonlarini o'zgalarga nechun qo'ydilar? Nechun..." Ikkinchi sochma ostiga "bir o'zbek tilidan" deya tagsarlavha qo'yib, unda "kimsasizlik yukidan og'irlangan tanda zolimona urilgan qamchilarning yarasi bor" deb yozarkan, "bosh-ayog'lari yalang'och, tirsaklarigacha qop-qora loyqadan botgan, baqirurg'a tovushi, qutilurg'a kuchi qolmagan", Vatan timsolini mungli xotun qiyofasida tasavvur etib, "zolimlar seni kimsasizmi ko'rdilar? Yo'q, sen kimsasiz emassan. Mana men butun borlig'im bilan senga ko'mak qilurg'a hozir. Mana men chin ko'ngul bilan sening yo'lingda o'lurg'a rozi..." deya yeng shimarganda, uning atrofiga Buxoro jadidlari-ning katta bir guruhi to'planib ulgurgan edi. Ularning nafratlari yo'nalishini aniq sezgan o'ris bosqinchilari bu katta kuchdan o'z ami-

rini yo‘q qilish maqsadida foydalandilar. Shuning uchun ham “*O‘lim sening o‘limingni istaganlarga, nafrat seni ko‘mgani kelganlarga*”, degan so‘zlarni shior qilib oldi.

“**Temur oldinda**” degan tagsarlavha qo‘yilgan uchinchi sochmada esa, Amir Temur maqbarasi oldiga ziyoratga kelib, unga o‘z holini bayon qilgan qahramon tilidan murojaat qilinadi: “*Bag‘rim yoniq, yuzim qora, ko‘nglim siniq, bo‘ynim bukuk. Sening ziyoratingga keldim, sultonim! Ezilgan boshim, qisilgan vijdonim, kuygan qonim, o‘rtangan jonim uchun bu sag‘anangdan davo izlab keldim, xoqonim!*” Yuz yillar davomida jafoga ko‘rgan, g‘am chekkan “turkning qonli ko‘z yoshlarini etaklaringga to‘kib, qorong‘iliklar ichida qolgan o‘zbekning ko‘zini ochish uchun shu tuproq to‘tiyo bo‘lsa ajab emas”, deb umid qiladi. Chunki Ulug‘ Temur qurgan davlat dushmanlar qo‘liga o‘tdi, “*Turkning yurti, ulog‘i,*

o'chog'i, Turoni yot qo'llarg'a tushdi". Uning ziyrak ongi jaholatga yuz tutdi, chunki uning o'g'lonlari o'z Xoqoni dunyoga tanitgan yurtga xiyonat qildilar, uni dushmandan saqlab qola olmadilar. Shuning uchun butun turk xalqi nomidan shoir iqrorga, iqrorgagina emas, Turon o'lkasi ko'rgan zararlarning to'lovi bo'lgan kurashga chog'lanib ziyoratga kelganini yozadi. Yana asar so'ngida Amir Temurga murojaat etib: *"Ey arslonlar arsloni! Menim yozuqlarimdan o't, Meni qo'limni tut, Belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber!"* deya ont ichib, to kurashda yengmas ekan, men sening oldingga, ziyoratga kelishga loyiq emasman tarzida xulosa qiladi.

PUBLISISTIKASI. Samarqandda 1917-yilning 15-aprelidan Mardonqul Muhammadzoda muharrirligida chop etila boshlangan **"Hurriyat"** gazetasidan Fitratning o'nlab maqolalari o'rin olgan. 1917-yilning

iyul oyidan esa, Fitrat muharrir sifatida faoliyat boshladi. Uning imzosi bilan “Hurriyat”dagi dastlabki maqola **“Ittifoq bo‘layluk”** hisoblanadi.

1917-yilning ayni bug‘doy pishig‘ida kechgan qirg‘inbarot janglardan Fitrat asarlariga tomgan, “Hurriyat”ning sarg‘aygan varaqlariga singgan o‘sha qonlarning dog‘larini aniqroq ilg‘ash qiyin emas: *“Ko‘rdim, kezdim, eshitdim, o‘qidim. Mamlakatlar orasida Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo‘qdir... bizdan ko‘proq foyda ko‘rgan, kattaroq osig‘lang‘an eski Rusiya hukumati edi...”* Fitrat bunda “yangi hukumatning saodat va‘dalaridan foydalanurg‘a” da‘vat etsa-da, bu hukumat oradagi nifoqlarning kamayishi emas, aksincha, uni kuchaytirishga urinayotganini anglash mumkin.

“Musulmonlar, g‘ofil qolmang!”, **“Birinchi choramiz”**, **“Sho‘royi islom”ning**

xatosi” maqolalarida esa shahar dumasidan, sho‘ro saylovidan foydalanib, dumada ko‘proq ovoz olib, demak, musulmonlar haq-huquqlarini hal qiluvchilar ro‘yxatiga yozilishga intilayotgan shahardagi rus, armani, juhudlarning nayranglaridan musulmonlarni ogoh bo‘lishga chaqiradi va bu yilda ular bilan ittifoq qilgan “Sho‘royi islom” ning xatosini ko‘rib, ajab-sinadi: *“Ajab, Sho‘ro jamiyati (“Sho‘royi islom” jamiyati nazarda tutilmoqda. — H.B.) nechun shuni tushunmaydi?..”* Buning uchun esa elni yana “ittifoq etmakka” chaqiradi: *“Bugun yer yuzida sakson milyo‘n bolang bor. Bularning tomirlaridagi qon chingizlarning, temurlarning qonidir. Bularning kuchlari sening kuchingdir”.*

“Hurriyat” gazetasining “Xabarlar” sarlavhasi bilan “Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi — bolshevik balosi” deb xabar bergan 49-sonida Fitrat “ikkinchi yo‘la qo‘zg‘alg‘an

bolshevik balosi”dan qutulish yo‘llarini ham izlab, ular “inqilob” deb atagan to‘ntarishlarning sabablarini o‘z gazetxonlariga tushuntirmoqchi bo‘ladi va bunda biz “turkistoniylar uchun xatarsiz yo‘l”ni belgilab bermoqqa urinadi. Bir tomondan, “Buxoro xonligida ochlik” davom etayotgan, ikkinchi tomondan, o‘ris to‘ralari va ingliz zodagonlari Turkistonga egalik qilishi uchun “yashirin muohadalar” olib borayotgan kunlarda, “turklikning qonini qaynatg‘uchi, iymonini yuksaltguchi bir suyunchli so‘z” tug‘ildi: **“27-noyabrning kechasida milliy laylatulqadrimiz bo‘lg‘an Turkiston muxtoriyati” e‘lon qilindi.** “Shul qop-qorong‘u uzoq yerinda oydin bir yulduz kabi yalqillagan” bu muxtoriyatni olqishlaydi: “Elli(k) yildan beri ezildiq, tahqir etildiq. Qo‘limiz bog‘landi, tilimiz kesildi, og‘imiz qoplendi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yemirildi, nomusimiz g‘asb qilindi,

huquqimizg'a tajovuzlar bo'ldi, insonligimiz oyog'lar ostiga olindi — to'zimli turdik, sabr etdik. Yolg'iz bir fikrni bermadik, yashunturdik, iymonlarimizg'a o'rab saqladik: Turkiston muxtoriyati!" Fitrat garchand "demokratiya haqqg'a tayanib, har bir millatning o'z haqlarini qaytarishi"ga ishonsa va buni muxtoriyatdan kutib, uning kelajagiga ilhaq qarasa-da, muxtoriyat e'lon qilinishining o'zi bilan yurtdoshlarimiz ozod bo'lib qolmasligini, uni asrashga, barqaror qilishga kuch va quvvat, mablag' va idrok zarurligini o'sha kuniyoq uqtirgandi.

1918-yil boshida e'lon qilingan "**Buxoroning holi**"da yozishicha: "Rusiya inqilobi, imperatorning taxtdan tushgani, rus hukumati-ning xalq qo'liga ko'chdig'i Buxoro hukumati-ga inqilobning haqiqati va inqilobchilarning tilaklarini bildurdi. Inqilobchilarning himoyasiga sig'ing'an yoshlardan Buxoro hukumati biram qo'rqdi". Shu ruhdan alanga olib, imkoniyat-

ni boy bermay g'alaba sari harakat qilmoq kerakligini Fitrat tushundi va Buxoroning qorong'idan chiqishi uchun yo'l axtardi, biroq vaziyatni, rus to'ralarining zobitli tarixini yaxshi bilgan adib bu yo'lda ularga ergashib bo'lmasligini uqtirdi va, natijada, Buxoro uchun ayricha bir yo'l zarur, degan xulosaga keldi.

Fitrat "**Buxoroda inqilob**" turkum maqolalarida yozganidek, "Xalq og'zinda yangigina bir so'z tushub qoldi: Buxoroda hurriyat bo'lar ekan". Fitrat Buxoroning bu yo'lini belgilar ekan, avvalo, mish-mishlarga aniqlik kiritmoqchi bo'ladi, ya'ni 1918-yilda yuz bergan hodisalarni tahlil qilib, xalqning ko'zini ochmoqqa va ana undan keyin bu harakatni inqilob sari burmoqqa niyat qiladi. Ana shu olijanob maqsad bilan yoza boshlagan risolasining boshlang'ichida "... Mana bul risolani shunlarni onglatmoq uchun qo'limg'a oldim.

Negakim, tilagim haqiqatni xalqg'a onglatmoqdir. Haqiqatni butun ochib onglata bilmak uchun bul risolani uch bo'lakka tartib etdim: 1) Buxoroning holi; 2) Fitna soatlari; 3) Yoshlarning tilaklari" (69-son). Taassufki, risolaning bosh qismi gazetadan e'lon etilgach, **1918-yilgi qonli voqealar, ya'ni Turkiston muxtoriyatining yakson qilinishi sabab "Hurriyat" yopib qo'yildi.**

Fitrat publitsistik asarlari birgina "Hurriyat" sahifalarida aks etgan maqolalardan iborat emas. Behbudiy muharrirligida chop etilgan "Samarqand" va "Oyina" kabi gazeta jurnallarda, U.Asadullaxo'jayev muharrirligida chiqqan "Sadoyi Turkiston", Obidjon Mahmudov nashr ettirgan "Sadoyi Farg'ona", Toshkentda bevosita Fitrat tahririda chiqqan "Tong", Buxoroda chop etilgan "Buxoroyi sharif", "Turon" va "Buxoro axbori" gazetalarida, so'ngra esa Toshkentdagi faol

nashrlardan bo'lgan "Ishtirokiyun", "Maorif va o'qitg'uchi" kabi ommaviy axborot vositalarida ham Fitratning o'nlab asarlari e'lon qilingan.

Nafaqat mamlakatda, balki xorijiy nashrlarda ham Fitratning publitsistik asarlarini ko'plab uchratish mumkin². U talabalik paytidanoq Istanbulda chop etilgan "Turk yurti", "Sirotu-l-mustaqim" ("To'g'ri yo'l"), "Ta'rifi muslimin" ("Musulmonlar ta'riflari") kabi nashrlarda faol ishtirok etgan. Ayniqsa, ulug' turk shoiri Mehmet Akif muallifligida nashr etilayotgan "Sirotu-l-mustaqim" jaridasi bilan faol hamkorlikni tasdiqlovchi manbalar anchagina. Jaridaning 1911–1914-yillardagi sonlarida Buxoro hayotiga oid o'nlab maqola va xabarlar berilgan. Ularning ko'pchiligi buxorolik muxbir G'iyosiddin Hasaniy qa-

² Boltaboyeva Sh. Fitratning xorijiy publitsistikasi. / Magistrlik dissertatsiyasi. – T.: O'zbekiston Milliy universiteti, 2011.

lamiga mansub bo'lsa ham, ular, shubhasiz, Fitrat tahlilidan o'tganini anglash qiyin emas. "Ta'rifi musulimin" majallasida Fitratning "Buxoro vaziri Nasrullohbek Parvonachi hazratlarina ochiq maktub"i e'lon qilinadi. Fors tilida chop qilingan bu maktubda "qora xarobalar va o't orasida qolg'an parishonhol ahli vatan"ning dardi bayon qilinib, uni yengillatish choralari ko'proq tojdor Hazrat va uning vaziri Nasrullohbekka bog'liq ekani aytish bilan birga: "har qancha ko'z va qulog'ingizni berkitsangiz ham, bu qadimiy islom millatining faryodi va muqaddas vatanimizning xarobligiga achinmay tura olmaysiz... Millatimiz va yurtimizni shu holga keltirib qo'ydikki, dunyoning burchagida eng qiyin kunlarda tashvish chekib yashayotgan odamlar ham bizning ahvolimizga qon yig'lamoqdalar" kabi otashin satrlar bilan vaziri a'zamga murojaat etiladi.

NASRIY ASARLARI. Istanbulda Fitratning **“Hindistonda bir farangi bilan buxoroli bir mudarrisning usuli jadida maktablari xususida qilg‘an munozarasi” (1911), “Hind sayyohi bayonoti” (1912)** kabi qissalari dastlab fors tilida, keyinroq Toshkentda o‘zbek tilida chop qilingan. Ayrim mutaxassislar Moskvada chop etilgan **“Bedil. Bir majlisda”** asariga ham qissa sifatida qaraydilar. Shu bilan birga, 20-yillarda yaratilgan o‘nga yaqin hikoyalar Fitrat nasriy asarlarining salmog‘ini ko‘rsatib turibdi.

Abdurauf Fitratning **“Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘an munozarasi”** ijodkorning jadidchilik yo‘lidagi ilk nazriy asaridir. Asar fors tilida yozilgan bo‘lib, **“Munozara”** nomi bilan mashhur. Qissa Istanbul dorilfununida tahsil olayotgan kambag‘al talabaning o‘z hisobidan **“Islomiya matbaasi”** da

bosilgan. Fitratning singlisi Mahbuba Rahim qizining xotirlashicha, Fitrat Istanbuldagi oshxonalaridan biriga xodim bo'lib ishga kirgan va tahsildan bo'sh paytlari mehnat qilib, ushbu asarining nashri uchun mablag' to'plagan. Xorijda nashr bo'lgani va Buxorodagi eng "Munozara"li masala — jadid va qadim kurashni aks ettirgani uchun bu asarning o'z yurtida tarqalishi juda qiyin kechgan. S.Ayniyning guvohlik berishicha, "Munozara"ning bir qismi yo'lda rus senzorlari qo'lga tushib, yo'q qilingan bo'lishiga qaramay, u Buxoroga yashirin keltirilgan. Fitratning boshqa bir zamondoshi F.Xo'jayevning qaydiga ko'ra, rus oxrankasi nafaqat Fitrat asarini, balki uni o'qigan, keltirgan kishilarni ham qattiq ta'qib ostiga olgan. Asar ta'qib qilinganiga qaramay, jadidchilik harakatining ustozlaridan Mahmudxo'ja Behbudiyning tavsiyasi bilan Hoji Mu'in Shukrulloh o'g'li tomonidan turkcha

(o‘zbekcha)ga tarjima qilinib, 1911-yilda dastlab, “Turkiston viloyatining gazetisi”da, so‘ngra esa, alohida kitobcha holida “Turkiston kutubxonasi” ruknida chop qilingan. Bu tarjima sahnaga mo‘jallangan variant bo‘lganligi uchun u tez orada Toshkent va Samarqand teatrlarida qo‘yilgan. Tarjima, avvalo, tomoshabinlar saviyasi va sahna imkoniyatlarini nazarda tutib bajarilgani uchun asarning muhim o‘rinlari tushib qolgan, uning til va uslubi ham tomosha asarlarining “tili”ga qarab tortilgan. Qolaversa, qissa Amir va Rus hokimiyati tomonidan ta‘qib qilinish davrida sahnaga chiqqani uchun ham undagi siyosiy sharhlar tushib qolgan, ba‘zi qahramonlar va tilga olingan tarixiy shaxslarning nomlari ham o‘zgartirilgan (masalan, yosh usmonlilar harakatining yo‘lboshchilari Anvarbek va Niyoziybek o‘rniga Lev Tolstoy haqida lavha kiritilgan). Shuningdek, qissaning o‘ziga xos “Muqaddima”si o‘rni-

ga, “Mutarjimdan” sarlavhasi bilan kichik soʻzboshi berilgan hamda asarning Buxoro amiri va ahli vatanga xitoban yozilgan “Xotima”si oʻrniga, Mahmudxoʻja Behbudiyning “Munozara haqqida” sarlavhali rus-tuzem maktablarining targʻibiga bagʻishlangan soʻngsoʻzi qoʻshilgan. Shunga qaramay, Fitratning asari oʻz ona yurtida ham, Sharq va Gʻarb oʻlkalarida ham mashhur boʻlib ketgan. Uning forsiy matni Bombay (1929), Karachi (1942) va Dushanbeda (1996) qayta nashr qilingan. Yuqorida qayd etilganidek, **“Munozara”ning ilk tanqidchisi ham, noshiri ham Mahmudxoʻja Behbudiy boʻlgan.** Ulugʻ alloma asarning zamona uchun eng muhim xususiyatlarini taʼkidlar ekan, shularni yozadi: *“Usuli jadida maktablarini(ng) nafligʻi va funun zamonida tahsilining buxoriylar uchun luzumi toʻgʻrisinda Farangi afandi ila mudarrisi Buxoriy janoblari oralarinda boʻlgʻan bahs va*

*suhbat "Munozara" ismida bir risola shaklin-da forsiy tilda, tab' va nashr bo'libdir. Bizda ko'zdan kechirdikki, haqiqatan buxoriylar uchun nafiydir. Farangi va Mudarris tilidan bu muhim bahslik risolani tahrir etuvchi va ham tab'ig'a arzi tashakkur qilurmiz"*³. Bu kabi tavsiyanomadan hamda Turkiston teatrlari sahnalarida va boshqa teatr truppalari tomonidan qayta-qayta ijro etilgani uchun ham asar ziyolilar o'rtasida katta munozaralarga sabab bo'lgan...

Asarning "Munozara" deb olinishi va ko'hna suhbat usulini tayin qilinishi ham bevosita muallif niyatlarining amalga oshishi uchun bajarilgan vazifaday tuyuladi. Qolaversa, bunday usul nafaqat qadimiy, balki ikki asr bo'sag'asidagi murakkab ijodiy voqealar silsilasini anglatish uchun zamonaviy uslub

³ Behbudiy M. "Munozara" haqqinda. // Turkiston viloyatining gazetasi. — 1911. — 29-sentabr. — 73 son.

darajasiga ko'tarilgan ediki, buning tasdig'ini g'arb adabiyotida ham, musulmon Sharq alomalarining asarlarida ham uchratamiz. Adib o'z asarining mavzu va mundarijasini kitobning muqaddimasida shunday ifodalagandi: "...Buxoroli bir mudarrisning hajga borib, Hindistonda bir farangi ila usuli jadida ham usuli qadim xususida qilg'an munozaraning natijasi bo'lib, mazkur hikoyat ushbu masalani tugal hal etmoqqa qaratilgandir". Muallif ushbu qissa vositasida yana shunday qayta-qayta takrorlaydiki, agar musulmonlar o'rtasida shia va sunniy, qadim va jadid kabi ichki muxolifatlarga o'rin berilsa, bundan faqatgina islomning, Buxoro millatining dushmanlari foyda ko'radi. Shuning uchun ham "kimki o'zini haqiqatdan dini islomning, Payg'ambari oxirzamon Muhammad (sallallohu alayhi va-sallam)ning ummati bilsa, bu be'mani ixtiloflarni oradan ko'tarishga" yordam berishga va

“zamoni maorif va zamoni madaniyat sanalgan hozirgi davrimiz bilan hamqadam bo‘lishlik”ka millatdoshlarini chaqiradi. Bunda Fitratning birgina vazir o‘z amiri bilan Buxoroning sonsiz hasratlari oldida ojiz ekanini tushunib, bevosita amirning o‘ziga qarata aytilgan so‘zlari ham asarga ilova qilingan. *“Ey, Buxoro millatining mehribon otasi!.. Islomiyat saltanatining zaifligi mehribon qalblarimizga va sohibi davlatimizga aniq va ravshan monanddirki, bugun yo erta dini islomning dushmanlari biz musulmon xalqini qaro kunlarga solarlar. Bu jinoyatchilarning vazifayi avvali dini islomga xusumat bo‘lib, yaqin zamonlar bizdan dinimizni tark qilishni talab qilarlar. Imomimizni po‘pga, azonimizni qo‘ng‘iroqqa, masjidimizni cherkovga almashtirmoqdan boshqa narsa qolmas”*. Birgina amir va uning vuzaro hamda umarolari bilan ish ko‘ngildagidek natijalanishi mumkin emasligini tushunib yetgan

Fitrat ayni shu paytdayoq muhtaram dindosh birodarlariga ham murojaat qiladi, “bu tanazzul, ya’ni nimaiki boy berilayotgan bo’lsa, musulmonlarning unsizligi va harakatsizligi natijasi” deb biladi. Muallif murojaatida davom etib: *“Islom — bizning dinimizdir, islom — bizning shariatimiz, islom — bizning saodatimizdir, islom — g’alabalarimiz boisi, islom — osoyishtaligimiz sababchisidir... Bu qadar g’aflat va tanballikda, beg’ayrat va jaholatda o’tirganimiz bas, yetar, bu asl dinimizning nobud bo’lishi, muqaddas vatanimizning bunday poymol etilishini kamoli bosharaflik bilan qabul qilsak, buni na shariat, na-da hayot qabul qiladi”*, deb yozadi Fitrat “Buxoroning najib millati bo’lg’an vatandoshlar”iga.

Istanbulda Fitratning chop qilingan nasriy qissalaridan yana biri **“Bayonoti sayyohi hindi”** (“Hind sayyohi bayonoti”)ni S.Ayniy yuqorida tilga olganimiz kitobning “Fitrat va

uning asarlari” nomli maxsus bobida “Roman uslubida yozilgan asar” deb ta’riflaydi va uning Buxoro afkori umumiyasiga “Munozara”dan ham ko‘proq ta’sir etganini qayd etadi. Bu ikki asar ma’lum ma’noda mavzudosh bo‘lib, ularda asrimiz boshlarida yuz bergan hodisalar bir millatparvar fozil shaxs tomonidan tahlil etiladi va shu boradagi fikrlar bir-birini to‘ldiradi. Muallif dastlabki asarida ko‘proq ma’rifatchi va islom islohotchisi sifatida ko‘ringan bo‘lsa, “Hind sayyohi...”ning mavzu doirasi ham, unda bayon qilingan voqealarning ko‘lami ham ancha keng. Asarda Buxoro amirligi hududidagi butun iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotning ko‘plab muammolari tilga olinadi. Ularni vujudga keltirgan ijtimoiy ildizlarni tahlil etish barobarida, bu kabi sanoqsiz illat va kamchiliklardan xalos bo‘lish yo‘llari ham ko‘rsatiladi. Qissada Buxoro ahli uch toifaga ajratilib, *ulamo*, *umaro* va *vuzaro* hayotining

barcha jabhalari qalamga olinadi, Turkistonni halokat yoqasiga olib kelgan ilm-u irfon emas, balki jaholat va g'aflat botqog'iga botib, fitna va g'iybat bilan mashg'ul bo'lgan ahli ulamo, o'z mas'ul vazifalarini unutib, pora, fahsh va aysh-ishratga berilgan amirlar va vazirlar, amaldorlar-u beklar, shariat hukmlari o'rniga noshar'iy qoidalar bilan fuqaroni talayotgan qozi va a'lamlar ekani ro'y-rost ko'rsatib beriladi va keskin tanqid ostiga olinadi. Xuddi shu o'rinda F.Xo'jayevning ushbu so'zlarini eslatmaslik mumkin emas: "...*Mavjud tuzumni qattiq tanqid qilgan, uning barcha tanqidlarini ayovsiz ochib tashlagan, amirlikning chirik sistemasini ochib bergan "Sayyohi hindi" asarining ahamiyatini qayd etmasdan o'tolmaymiz*"⁴.

⁴ Xo'jayev F. Buxoroda inqilob va O'rta Osiyoning milliy chegaralanishiga doir. / Tanlangan asarlar. Uch tomlik. 1-tom. — T.: Fan, 1978. — B. 98-99.

Qisqasi, “Hind sayyohi bayonoti”da o‘lka hayotining ko‘plab muammolari — xalqning nochor ahvoli, harbiy nozirlarning intizomsizligi, shahar va uning atrofidagi qishloqlarning ekologik ahvoli, el sog‘ligini saqlash — tabobat va davolash usullari, sanoat va ishlab chiqarishning nochor holati, qozixonalar ishi, qator viloyatlarning milliy ro‘znomaga muhtojligi, yo‘l qurilishi, hatto temir yo‘llar, dehqonchilig-u hunarmandchilik — hayotning barcha sohalari keskin islohga muhtoj ekanini Hind sayyohi nazari orqali idrok etiladi...

Fitratning “Xayoliy hikoya”si, ya’ni **“Qiyomat” hikoyasida** “Qabrdan keyingi hayot”, “Jannatga sayohat” kabi mavzularning takrorlanmas syujeti yaratilgan bo‘lib, maqsad faqat xayoliy hikoya emas, balki davrning ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy muammolari ayni mana shu qisqa asarda ochib berilgan. Muallif ramziy obrazlardan foydalanib, hokimiyat-

ning aldovlariga uchgan odamlarning taqdirini ko'rsata olgan. Bu tuzumda odamlar taqdiri faqatgina fojiali bo'lishini bashorat qiladi. Hikoya qahramoni Ro'ziqul (Pochamir) bir umr boyning eshigida xizmatkor bo'lib ishlagan. Boyning tomini suvayotganda yiqilib, mayib bo'lgan va ishsiz qolgan. Uning keyingi umri ko'knorixonada o'tgan. Hikoyada ko'knorixonadagilar bir-birlariga g'amxo'rlik qilishadi, ular tishkovlagich yasab, uni sotib kun ko'rishadi. Qizig'i shundaki, qahramon hayotda topmagan qadrini shu ko'knorixonadan topadi: *"Ro'ziqul kabilarga birdan-bir sig'inadigan joy shu edi"*, deb yozadi muallif. Pochamirning xayoliy o'limi yuz tutganda, uning ko'knorixor birodarlari xaltalaridan kafanlik tikib, shariat qoidalariga muvofiq tarzda dafn etadilar. "Qiyomat" asarida Allohga qarshi ateistik fikrlar mavjud emas. Oxirzamondagi suhbat real hayot voqealarini takror eslatadi; asarda

Pochamirdan tashqari, Munkar-Nakir vositasida ma'muriyatchi amaldorlar tanqid ostiga olinadi. Ro'ziqul narigi dunyoda vayronagarchilik, tartibsizlik va johillikni ko'radi. Axloqiy, ma'naviy zo'ravonlik sharoitida yashashga mahkum bo'lganlarni ko'rsatadi. Mifologik va fantastik vosita bilan narigi dunyo sifatida ko'rsatilgan borliq aslida 20-yillar hayotining o'zi, buni Fitrat mamlakat poytaxti Moskvada ham, Toshkent va boshqa shaharlarda ham ko'rib kuzatgan ediki, bu davr hayotining o'zi naqd qiyomat qoyim edi. Bularda inson taqdiriga achinish, unga insoniy munosabatning o'zi yo'q edi. Zarracha ham haqiqati bo'lmagan, insonni tahqirleydigan, faqat ikkiyuzlamachilik va yolg'ondan iborat tuzumni Fitrat qiyomat shaklida ko'rdi, davrning jamiki og'riqlarini Ro'ziqul obraziga jamladi. Pochamir xalqning bir bo'lagi. U va unga o'xshaganlar barcha o'zgarishlarning barcha qiyinchiligini o'z taqdirida totib ko'rganlar.

1927-yildan boshlab mamlakat ateizm — dinsizlik sari yuz tutdi. Millatning koʻrki boʻlgan diniy arboblarning qatagʻon qilindi. Bu qatagʻondan din peshvolarigina emas, sharqshunos olimlar, hatto Rossiyadagi sharqshunoslar ham omon qolmadi. Ayni davrda Moskvada “Bezbojniki” jamiyati tuzilib, uning boʻlimlari barcha ittifoqdosh respublikalarda ochildi. Uning noshiri afkori boʻlgan “Xudosizlar” jurnali 1928-yildan faollashib, barcha ijodkorlarni mana shu jurnalda oʻzilarining asarlari bilan qatnashish talab etildi. Fitratning “Zahroning iymoni”, “Qiyshiq eshon”, “Meʼroj”, “Oq mozor” kabi hikoyalari ana shu jurnalda bosiladi.

Fitrat bu turkum hikoyalarida ruhoniy obrazini yaratarkan, ulardagi axloqsizlik, tamaʼ, hiylayi sharʼiy kabi jihatlarni keskin qoralaydi. Biroq, shu bilan birga, bu hikoyalarida zamoni bilan murosasozlik ruhi ham aniq seziladi.

FITRAT DRAMALARI. Fitratning boshqa asarlaridagi kabi uning dramalarida Istiqlolga intilish ruhi aniq seziladi. Ana shu maqsadda dramaturg xalq o‘tmishiga murojaat qiladi, tarixning qorong‘u va bahstalab o‘rinlariga yorug‘lik kiritmoqchi bo‘ladi, o‘tmishdagi qahramonlar jasoratini eslatish orqali xalqni o‘z istiqboli uchun kurashga chorlaydi. Tarixiy mavzuda yaratilgan dramalari **“Temur sag‘anasi”**, **“O‘g‘izxon”**, **“Abo Muslim”**, **“Qon”**, **“Begijon”** ning taqdiri shoirning o‘z taqdiri yoki o‘sha tarixiy qahramonlarning qismatidan ham fojialiroq. Chunki ularning ko‘pchiligi ommaviy tarzda nashr etilmay qolib ketgan, faqat ayrim teatrlar sahnalarida bir necha bor qo‘yilgan, xolos. Shuning uchun bu asarlarning mavzu doirasi va qahramonlar hayoti haqida ayrim mulohazalarni mavjud manbalar asosidagina tiklab, bayon qilish bilan cheklanishga majburmiz.

“**Temur sag‘anasi**” asari, bizningcha, 1918-yilning boshlarida yaratilgan bo‘lib, bu asar vositasida Fitrat xuddi avvalgi publitsistik asarlari kabi yurtdoshlariga murojaat qiladi, uning o‘zligini eslatishga, bu zulmat va g‘af-latdan chiqib ketmoqqa da‘vat etadi. Asar-da Amir Temurning o‘z qabridan tik turib, xalqiga qarata aytgan so‘zlari dramaning eng ta’sirli lavhalaridan bo‘lgan. Uning so‘zlari “Yurt qayg‘usi (Temur oldida)” sochmasida asar qahramoni Temur ruhiga murojaat qil-gan bo‘lsa, dramada unga javoban Temurning so‘zlari qalamga olinadi: *“Men sizlarga ko‘p narsalar yetkardim. Ne bo‘ldiki, bir zamonlar sharaflı va jasur bir millatning avlodlari hozir boshqa bir millatning zulmi ostida qolmish. Kimlar bog‘laringdan qushlarimni quvmoq-da!.. Otalar merosidan nimani oldingiz! Sizdan talab etaman, qalqingiz! O‘lkani tu-zatingiz, avlodlarimning hur yashamoqlari-*

ni ta'min etingiz. Agar bunday qilmasangiz, o'lka bir buyuk mozorlik holiga kelur"⁵.

Tabiiyki, bunday keskin gaplar bilan bosqinchilarga qarshi nafratning ifodalani-shi XX asr 20-yillarining oxirlaridan bosh-lab tanqidlarga va adabiy "janjal"larga sabab bo'lgan. Afsuski, hozircha "O'zbek teatrining 10 yilligi"ga bag'ishlab e'lon qilingan matbuot materiallaridan tashqari⁶ boshqa biror matnga ega emasmiz.

"Abo Muslim" dramasi haqida birmun-cha tasavvur beruvchi manba va taqrizlar mavjud. Asarning matnini tiklashga ko'mak beruvchi birinchi manba Fitratning 1925 yili chop qilingan "Muxtasar islom tari-xi" risolasidir. Unda islom tarixidagi buri-lish davri — umaviylik xalifaligining inqirozi va xurosonlik mashhur afsonaviy qahramon

⁵ Yosh leninchi, 1935, 10-mart (56-son).

⁶ O'sha manba, o'sha son.

Abo Muslimning kurashlari natijasida xalifa-lik Payg'ambarimizning as'hoblaridan sanalgan abbosiylar qo'liga o'tish voqealari bayon qilinadi⁷. Besh parda, yetti ko'rinishdan iborat bo'lgan bu dramaning sahna varianti haqida bir necha taqrizlar e'lon qilingan. Shulardan dastlabkisi shoir Abdulhamid Cho'lponning "Qalandar" imzosi ostida chop qilingan taqrizi bo'lib, unda shunday deyiladi: *"Tomosha — aralashkuchi qahramonlarining ko'pligi ham tarixning eng chuvalashgan davridan olinib yozilg'ani uchun bo'lsa kerak — keng omma-ga onglashilishi og'irroqdir. Shuning uchun tomoshaning so'ngida uning natijasini to'la ko'rsataturg'an bir ko'rinish orttirilg'an. Bu ko'rinish xiyla muvaffaqiyatli tuzulg'an... Umuman, tomoshadan Fitratga xos so'z ustaligi xiyla kuchlik. Bu jihatdan tomosha katta*

⁷ Fitrat. Muxtasar islom tarixi. — T.: Nur, 1992. — B. 26.

bir adabiy ahamiyatga molikdir"⁸. Taqrizda ko'proq asarning mazmuni emas, uning sahna talqini haqida fikr yuritilib, tomosha Abror Hidoyatov, Mannon Uyg'ur kabi mashhur san'atkorlar ishtirokida "Turon" teatri sahnasida qo'yilgani qayd etiladi.

Milodiy V asrda yashagan va o'ttiz besh yil hukmronligi davrida tarqoq turk ulusini birlashtirib, nisbatan markazlashgan xoqonlik yaratgan O'g'uzxon (asli ismi Musaxon Teoman o'g'li) haqida turk tarixida ko'plab afsona va rivoyatlar, shuningdek, tarixiy-ilmiy asarlar mavjud⁹. Fitrat bundan qariyb o'n sakkiz asr avval sodir bo'lgan voqealarni tomoshabinlar ko'zi o'ngida tiriltirar ekan, ko'proq e'tiborni O'g'uzxonning bahodirlariga, davlatni idora etishda nisbatan taraqqiyparvar yo'l hisoblangan (o'z zamoni uchun, albatta)

⁸ Turkiston. 1922, 21-dekabr.

⁹ Пестовский Б.А. Узбекский театр // Искусство и жизнь. 1922, № 1. — С. 7-8.

xoqonlik, ya'ni markazlashgan davlat qurish yo'lidagi intilishlariga e'tibor berib, Buxoroda hamon bekklik tizimi (ma'lum hududda bekkning istalgan, cheklanmagan imkoniyatlarga ega bo'lishi) hukm surayotgan davrda o'lkaning shonli o'tmishini eslatmoqchi bo'ladi.

1921-yili sahnaga chiqqan **“Qon”** nomli beshpardali fojining taqdiri haqida yana ham mavhumroq tasavvurga egamiz. O'sha davr vaqtli matbuoti sahifalarida bosilgan xabarlardan bunday asarning sahnaga chiqqani, unda bayon etilgan voqealar yaqin o'tmishdagi hodisalar, ya'ni 1917-1918-yillarga taalluqli ekanini bilamiz xolos. Ayrim tadqiqotchilar Fitratning **“O'g'uzxon”**, **“Qon”** nomli asarlari umuman sahna yuzini ko'rmagan deydi. Ushbu asarlar taqdiri qanday bo'lganidan qat'i nazar bizgacha matni to'la yetib kelmagan besh sahna asari (avvalroq yaratilgan **“Begijon”** ham nazarda tutiladi) Fitratning dramaturg sifa-

tidagi iste'dodining qanot yozganini, keyinroq yaratilgan mashhur sahna asarlarining tug'ishida o'ziga xos tajriba maktabini o'taganini qayd etmaslik mumkin emas.

“Chin sevish” dramasi uchun sahna talqini juda katta hayajon bilan kutib olingan, davri-ning eng iste'dodli adiblari Cho'lpon, Vadud Mahmud va boshqalar bu haqda taqrizlar yozganlar. Jumladan, Cho'lpon o'z taqrizini shunday boshlaydi: *“Yaqinda o'zbek sahnasi ulug' va ulug'ligi qadar yuksak va go'zal bir tomosha (pyesa) ko'rdi. Men o'zim iqror qilarg'a teyishmankim, uning o'zini va o'ynalishini tegishincha tanqid va yo taqriz qiluvni men bajara olmayman. Biroq, bu yo'l va to'g'rida yozmoqlik vazifasi menga tushkanlikdan ko'p chuqur bo'lmag'an qarashimni yozib ketaman”*¹⁰. Tabiiyki, asardan qattiq ta'sirlangan shoir uning tahlilidan ko'ra

¹⁰ Ishtirokiyun. 1920, 25-noyabr.

ko‘proq voqealarni qayta bayon qilishga beriladi va uning sahna talqinidan qoniqish barobarida: “Chin sevish” ning yozg‘uvchisi uning davomi deyilsa bo‘laturg‘an “Hind ixtilolchilari” ni yozib bitirgan” deb xabar qiladi. Taniqli yapon olimi Xisao Kumatsu Fitratning mashhur “Temur sag‘anasi”, “Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari” kabi asarlariga alohida e‘tibor qaratib: *“Vatanparvarlik” g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan bu asarlarning tomoshasiga kelganlar, shu qadar qattiq ta‘sirlangan edilarki, ular har safar tomosha so‘ngida teatrlardan ko‘z yoshlarini oqizib chiqib ketardilar”*¹¹, degan haqiqatni qayd etadi.

Fitrat zamondoshlarining guvohlik berishicha, “Hind ixtilolchilari” 1921-yilning o‘zi-dayoq yozib tugallangan. Ayrim manbalarda esa o‘sha yiliyoq sahnaga qo‘yilgan va “teatr

¹¹ Xisao Kumatsu. 20-Yuzyl baslarinde Orta Asyada Turkcilik va Devrim hereketleri. Anqara, 1993. – B. 40.

uchun nusxa” tarzda Toshkentda chop qilini-
gani qayd etiladi. Biroq, asarning tugal nashri
1923-yili Berlinda amalga oshirilgan bo‘lib, u
haqda ushbu nashrdan keyin Ahmad Shukriy,
Vadud Mahmud va boshqalarning taqriz va
maqolalari e‘lon qilingan. Jumladan, Vadud
Mahmud o‘z taqrizida shunday yozadi: “...
*asarda tasvirlar, hayajonlar ancha tuzuk
va mukammal. Ayniqsa, Rahimbaxsh va
Dilnavozning so‘zlari juda ta’sirlidirki, bu
asarda eng mukammal chiqqan tip shudir.
Zotan, Fitratning istar forscha, istar turkcha
asarlarida turmushga va haqiqatga muvofiq
tasvir etilgan bir tip doimo mulla, mudarris
tipidir*”¹².

Fitratning bu ikki sahna asari egiz mavzu-
dagi dramalar hisoblanadi. Chunki har ikki
asarda ham voqea o‘rni bir — Hindiston,
asar g‘oyasi yerli xalqning mustamlakachilarga

¹² Turkiston. 1923, 17-oktabr.



qarshi kurashi va bu kurashda ishtirok etishni o'zining vijdoniy burchi deb hisoblagan Turkiston yoshlari. Hindistonga munosabat, unga voqea o'rni va e'zozli o'lka sifatida yondashish Fitratning bir necha asarlarida kuzatiladi. "Munozara" da buxorolik mudarris bilan farangi Hind zaminida uchrashadi, keyingi qissasi "Hind sayyohi bayonoti" deb atalib, asarning bosh qahramoni Hind sayyohi — ziyolisi qilib olingan. "Bedil. Bir majlisda" asarida ulug' faylasuf shoir ijodi orqali fikr yana Hindistonga qaratiladi, nihoyat, nomlari tilga olingan ikki egizak drama voqealari Hind zaminida kechadi. Bu bilan Fitrat domla qadimgi va sirlar o'lkasi bo'lib kelgan Hindistonni o'smirligida ko'rgani, otasi bilan haj ziyoratiga ketaturib, Peshovarda (bu shahar 1968-yildan keyin Pokiston hududida) bo'lgani va boburiylar qoldirgan meros bilan qiziqqani sabablarini ham uning ilmiy asarlari zamiridan izlaymiz.

Fitrat dramaturgiyasining shoh asari, shubhasiz, “Abulfayzxon” fojiasidir¹³. Asarda ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi vakili Abulfayzxon davlatining tanazzuli hamda mashhur eron shohi Nodirshoh yordamida Buxoroda mang‘it amirlarining hokimiyatga kelishi bilan bog‘liq tarixiy voqealar qalamga olinadi. Dramaturg Buxoro tarixining bunday keskin burilish nuqtalaridan birini qalamga olishi bilan o‘zining ilmiy va tarixiy asarlarida aks ettirgan hukmron sulolaning hokimiyat tepasiga kelish sabablarini, bunday g‘ayriqonuniy yo‘l bilan hokimiyatni egallagan xonlarning xalqqa o‘tkazayotgan jabr-zulmi shu sabablar zamirida yotganini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Fitrat Abulfayzxon fojiasiga yuz burar ekan, bunday asarning tug‘ilishi uning Buxorodagi mas‘ul ishlardan chetlatilib, Moskvadalik davriga

¹³ Fitrat. Abulfayzxon. – M., 1924; / Tanlangan asarlar. 1-jild. – T.: Ma’naviyat, 2000.

to'g'ri kelgan. Chunki ayni 1923-yilning o'zida Buxoro rahbarlaridan Fitrat, Atoxo'ja, Sattorxo'ja, Yoqubzoda kabi diyonatli va zukko kishilar o'z lavozimlaridan chetlatilgan, ularning o'rniga "xalq vakili" sifatida bunday rahbarlik ishlariga mutlaqo tayyorgarligi bo'lmagan kishilarning kelib qolishi ma'lum ma'noda XVIII asrning o'rtalarida yuz bergan ashtarxoniylar sulolasining fojiasiga o'xshash hodisalar sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Fitrat bu tarixiy-badiiy asarning ichki talablaridan kelib chiqqan holda, amirlik tarixidagi eng kir va murakkab manzaralarni kitobxon ko'zi o'ngida gavdalantira olgan. Ayniqsa, asar so'ngida xayoliy Siyovush aytgan so'zlarni Fitratning "qora va kir taxtga" nisbatan aytgan hukmi sifatida qabul qilish mumkin. Fojia voqealari izchil suratda davom ettirilib, nafaqat ashtarxoniylar, balki hokimiyat tepasiga yangi kuch — mang'it amirlari sulo-

lasining ham qo‘li qonli bo‘lib, shuning uchun uning tanazzuli ham aniq ekani ko‘rsatib beriladi. Garchi Siyovush xayolida o‘zidan qariyb bir yarim ming yil keyin o‘tgan Bedilning satrlarini o‘qir ekan, buni tarixiy haqiqatning buzilishi deb emas, balki badiiyatning talabi bilan keltirilgan, asarning ichki mantiqidan kelib chiqadigan xulosa deyish mumkin.

“**Shaytonning Tangriga isyoni**” pyesasi ham “Abulfayzxon” bilan (1924) bir davrda yaratilgan. Bu har ikkala asar turkistonliklarga ularning vatanidagi siyosiy ahvolning bor haqiqatini achchiq til bilan izohlab bergan. Bu asarlarda muallif o‘z fikrlarini g‘ayritabiiy alam tushunchasi bilan pardalab ifodalaydi. Bu usul ayrim hollarda ba‘zi dogmatik tanqidchilarga g‘ayridiniy tashviqot olib borganday bo‘lib ko‘rinadi”¹⁴. Darhaqiqat, asarning ilk nusxa-

¹⁴ Ollvort E. Buxorolik Abdurauf Fitratning argumentlari. / Yaqin va Markaziy Osiyoga doir ilmiy yozishmalar. 5-jild, 1991. – B. 13. (ingliz tilida).

sida 20-yillarning boshlarida dastlab biz ijobiy sanaganimiz ruslashtirish jarayonining ayrim tashqi jihatlarini keskin tanqid va piching ostiga olingan. E.Olvort to'g'ri ta'kidlaganidek, bu ruhning she'riy shaklda yozilgan kichik dramasi "Shaytonning Tangriga isyoni" da yaxshi aks etadi.

Shayton yoki iblis deb nomlangan maxluq haqida musulmon kitoblarda ham, nasroniy adabiyotida ham talaygina talqinlar mavjud. Biri uni "toshbo'ron qilingan", ikkinchisi "jannatdan haydalgan", boshqasi Alloh dargohidan quvilishini "hurlikka intilish", hatto "haqiqatni topish yo'li" deb tushuntirgan manbalar Fitrat asarni yaratgunga qadar ham bor edi, hozir ham mavjud. Bu voqea haqida Qur'oni karimda shunday oyat bor: "Aniqlik, biz sizlarni (*ya'ni, odamlarni.* — H.B.) yaratdik, so'ng sizlarga surat berdik, so'ng

farishtalarga “Odamga sajda qilinglar” deyi-
shimiz bilan ular sajda qiladilar. Magar iblis
sajda qilguvchilardan bo‘lmadi. (Alloh) dedi:
“*Senga buyurgan paytimda nima seni sajda
qilishdan to‘dsi?*” — “*Men undan (odam-
dan) yaxshiroqman. Meni olovdan yaratgan-
san, uni esa loydan yaratding*”, — dedi u”¹⁵.
Turkiy adabiyotda ko‘p tilga olingan, xususan,
Fitratning zamondoshlari ozar adibi Husayn
Jovid va tatar yozuvchisi Majid G‘afuriyning
asarlarida tasvir etilgan bu mavzuni negadir
“ateistik” deb tushuntirish Olmoniya va Rusi-
ya olimlari asarlarida uchraydi. Fitratning ush-
bu she’riy dramasini olmonchaga tarjima qilib,
uning ilk nashri bilan birga chop etgan olima
I. Baldauf ham bu fikrni takrorlabgina qolmay,
balki Ovro‘pa adabiyotiga singgan “ekzis-

¹⁵ Qur’oni karim, A’rof surasi, 11-12 oyatlar. Alouddin Man-
sur tarj. — T.: Cho‘lpon, 1992. — B.101.

tensializm” ning ko‘rinishi sifatida baholaydi¹⁶. Bizningcha, ruhi va uslubi jihatidan “Ilohiy komediya” ga yaqin turuvchi (N.To‘raqulov) bu ikki asar o‘z zamonasidagi adolatsizliklarga qarshi qaratilgan, diniy mifologik syujetni qayta ishlash asosida yaratilgan chuqur satirik asar sifatida o‘rganilishi lozim.

ILMIY MEROSI. Fitratning serqirra ijodiy va ilmiy faoliyati o‘ndan ortiq tarmoqlarni (adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, tarix, falsafa, ilohiyot, etnografiya, san’atshunoslik va boshqa sohalar)ni o‘z tarkibiga olgan bo‘lib, avvalo, uning filolog olim sifatidagi faoliyati qadrlidir. Uning yolg‘iz tilshunoslikka doir asarlari nomining o‘zi olim yaratgan ilm xazinasining qamrovini tasavvur qilish imkonini beradi: **“Ona tili”** (Qayum Ramazon va Shokirjon Rahimiy bilan hammu-

¹⁶ Baldauf I. Abdurauf Fitrat: Shaytonning Tangriga isyoni. / Turk tili va adabiyoti masalalariga bag‘ishlangan Turkologiya Kongressi materiallari, Visbaden, 1991. — B. 14–93. (nemis tilida)

alliflikda) darsligi (1918), **“Tilimiz”** maqolasi (1919), o‘zbek tilining morfologiyasi va sintaksisiga bag‘ishlangan **“Sarf: O‘zbek tili qoidalari bo‘yicha bir tajriba”** (1-kitob, 1925–1929), **“Nahv: O‘zbek tili qoidalari bo‘yicha bir tajriba”** (2-kitob, 1926–1930) asarlari, **“Qoidahoyi zaboni tojiki”** (1929) darsligi, **“O‘zbekcha til saboqligi”** (1926), **“Muqaddimatu-l-adab”** (1926), **“Imlo konferensiyasi munosabati bilan”** (1928), **“Dar girdi alifboyi nav”**, **“Dar girdi alifboyi toza”** (“Yangi alifbo tegrasi-da”, “Rahbari donish” jurnalida (1928) maqolalari) ulug‘ olimning XX asr o‘zbek va tojik tilshunosligining shakllanishidagi xizmatini ochiq ko‘rsatadi.

Hazrati Navoiy insonni maxluq (hayvon)-dan farq qilib, “guhari sharif” maqomini bergan uning tilidir, deb yozgani ma’lum:

So'zdirki, nishon berur o'likka jondin,
So'zdirki, berur jong'a xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Fitrat insonning sharifliq belgilari xususida "Inson yer yuzidagi maxluqlarning eng shariflisidir, insonning boshqa maxluqotdan sharafi shundaki, inson taraqqiyot va tanazzulga qobildir, boshqa hayvonlarda esa bu yo'q. Hakimlar inson taraqqiyoti va tanazzuli uchun uch olamni ajratganlar: hayvonot olami, jamodot olami va insoniyat olami; kimki o'z insonliq darajasini bu muayyan holatga mahkamlab qo'ysa, hayvonot olamiga doxildir; kimki, insonliq darajasini muqarrarliq maqomidan tanazzul qilsa, jamodot olamiga doxildir, ya'ni jamoddir; kimki o'z insonliq darajasini asl holatidan taraqqiy qildirsa, bu uning insonlik olamiga kirishidir. Hakimlar uni INSON ataganlar. Axir, insof qiling,

kofirlar taraqqiy qilsalar biz nega tanazzulda? Kofirlar butun olam oqillarining nazdida o'z nomini INSON yozdirlar — biz nega jamod?!¹⁷” degan masala qo‘ygan. Inson taraqqiyotga qobilligi bilan jamod va maxluqotdan ustun bo‘lar ekan, uning ma‘naviy takomili, avvalo, mana shu takomilning ibtidosi bo‘lgan til taraqqiysi bilan bog‘liq.

TILSHUNOS SIFATIDA. Fitratning tilshunoslikka doxil asarlari tasodifiy bo‘lmay, bir millatparvar olimning tabiiy va qonuniy faoliyatining muhim bir qirrasi ekanini **“Chig‘atoy gurungi”** tashkiloti orqali ochiq anglaymiz. Gurungning til sohasidagi faoliyatini chuqurroq anglash uchun Fitratning bevosita tilshunoslik masalalariga bag‘ishlangan asarlariga murojaat qilamiz.

¹⁷ Abdurauf Fitrat. Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘an munozarasi. Forschadan H. Boltaboyev tarjimai. // Sharq yulduzi. 1997. — I son. — B. 159-160.

Dastlab, **“Tilimiz”** maqolasida Alisher Navoiy boshlagan til ozodligi uchun kurashni davom ettirib, turk tilining boy va baxtsiz holini anglatdi: *“Bir tilning boyligi u tildagi soʻzlarning koʻpligi (kasrati kalimat), undirish kengligi (vuzʼati ishtiqaq), yoʻsun tugalligi (mukammaliyyati qavoyid) bilan boʻlur. Turkchada soʻz koʻpligi bormi? Bu soʻz bunda emas, necha bir yil burun oraga chiqmish deya Navoiyning “Muhokamatu-l-lugʼatayn” oʻtli kitobidan oʻz javobini olmish”*¹⁸. Darhaqiqat, Alisher Navoiy turkchanning boyligi xususida yuksak shoirona ehtiros bilan yozgan: *“Turk alfozigʼa dagʼi mulohazani lozim koʻrildi — olame nazarga keldi, oʻn sakkiz ming olamdin ortuq anda zeb va ziynat; va sipehre tabʼgʼa maʼlum boʻldi — toʻqquz falaktin ortuq onda fazl va rifʼat; maxzane uchradi — durlari kavokib gavharlaridin*

¹⁸ Ishtirokiyun. — 1919. — 12-iyun.



ravshandaroq; va gulshane yo'luqti — gullari sipehr axtaridin duraxshandaroq; harimi atrofi el oyog'i yetmakdin ma'sun va ajnosi g'aroyibi g'ayr ilgi tegmaktin ma'mun"¹⁹.

Fitrat bu oliy fasohat bilan aytilgan ta'rif zamiridagi haqiqatni chuqur anglagani uchun ham: "*Navoiy kitobi turkchanning boylig'ini ochibg'ina bildirsa olmasa ham, turkchada so'z ko'pligini u yaxshi biladir*" degan e'tirof bilan Hazrati Navoiy yo'lini davom ettirdi, ya'ni so'z yasalishi va grammatik qonuniyatlarini ustuvorligi jihatidan turk tilining mukammal darajada shakllangan ekanini ham anglatib ulgurdi. Shuningdek, turkchanning go'zal, tugal va boyligini ko'satish barobarida uning baxtsizligiga sabab bo'lgan omillarni birma-bir tahlil nigohidan o'tkazdi. Ular orasida eng asosiy unsurlardan biri — turk tilini baxtsizlik girdo-

¹⁹ Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn // Asarlar. O'n besh tomlik. T. XIV. — T.: G'afur G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. — B. 119.

biga tortgan narsa taqliddir: *“Dunyo sahnasida iyaru taqlidning rolin hech bir millat biz turklar kabi ado eta olmaganlar. Biz qaysi bir millatning qaysi bir narsasiga taqlid etmoqchi bo‘lsak, o‘zimizning milliy ruhimizga qaramasdan taqlid etamiz”*²⁰. Shu taqlidchilik tufayli arab va fors so‘zlariga keng o‘rin berilishi yetmaganiday, til qurilishi, grammatik qonuniyatlarni ham mana shu tariqa begona bir til qoidalarining talabi bilan boshqarilishiga yo‘l qo‘yilgan.

“Chig‘atoy gurungi”ning “Imlo to‘dasi” (Fitrat, Elbek) a‘zolari yangi isloh qilingan yozuv qoidalarini ham ishlab chiqib, uni imkon boricha milliy zaminda taraqqiy qildirish niyatida bo‘lganlar. Bu haqda Elbek yozadi: *“Tilimiz orasiga qotishib qolg‘an yot so‘zlarni yozg‘an chog‘imizda ham butunlay o‘z*

²⁰ Ishtirokiyun. — 1919. — 14-iyul.



tovushlarimiz bilan yozmog'imiz kerak"²¹. "To'da"ning nazdida alifbo islohi faqatgina savod chiqarishni yengillashtirish maqsadida amalga oshirilgan bir "kampaniya" emas, balki tilimizning taraqqiyot shakllaridan biri imlo masalasi ekanini chuqur anglab, uning orfografiya va orfoepiya qoidalarini ham yaratish zarurligini anglatgan: "*Boshqa ellarning yozuv va alifbolarida ko'rilgan tartib, intizom, qulaylik bizning yozuvimizda yo'q. Boshqalarning alifbolari, yozuvlari tartibli, intizomli, qulay. Bizniki tartibsiz, buzuq ham qiyin*"²².

1919-yilning boshlaridanoq jiddiy faoliyat ko'rsata boshlagan to'dalardan biri Til va imlo sho'basi bo'lib, unga Cho'lpon va Elbek rahbarlik qilgan. Fitratning "Tilimiz" maqolasida ushbu to'daning dasturiy yo'nalishi belgilab berilgan. Elbek, Ashurali Zohiriy, Shokir-

²¹ Elbek. *Yozuv yo'llari*. — Toshkent, 1921. — B. 29.

²² Elbek. *Ko'rsatilgan asar*.

jon Rahimiy, Qayum Ramazon, G'ozzi Yunus, Shorasul Zunnun kabi olimlarning tilshunoslikka doir ishlari Til va imlo to'dasi dasturi bo'yicha bajarilgan. Gurung a'zolari 1919-yilda arab alifbosini isloh qilgan holda yangi alifbo yaratishga intildilar, 1921-yilning yanvarida o'tkazilgan Til va imlo qurultoyi bevosita "Chig'atoy gurungi" ning rahbarligida o'tdi, Cho'lpon qurultoy ishida "gurung" vakili sifatida qatnashdi²³.

Ushbu qurultoy 1921-yilning yanvar oyida o'tkazilgan bo'lib, Fitrat dastlabki kirish nutqidan tashqari, imlo masalalarining muhokamasida ham so'zga chiqqan. Fitratning 1921-yilgi Til va imzo qurultoyida so'zlagan nutqi keyinroq **"Tilimizning adabiyliigi"** sarlavhali maqola sifatida chop etildi. Fitrat o'zbek tilining adabiy til sifatidagi faoliyatini birgina Alisher

²³ Ozbek Til va Imla qurultayining chiqargan qararlari. — T.: Turkistan Cumhuriyatining Davlat nesriyati, 1922. — S.35–43.

Navoiy davridan boshlamaydi, balki Navoiygacha bo'lgan adiblar ijodida, ayniqsa, Xoja Ahmad Yassaviydan tortib Husayn Boyqaroga qadar o'tgan shoir va adiblar ijodida turk tili sayqallanib, adabiyligini ta'minlashga erishgan. Fitrat domla "tilimizning adabiyligi o'zidadir" deganda turk (o'zbek) tilining nutq qoidalariga mosligi, uning qoidalarining mukammalligi, yo'sun tugalligi kabi jihatlarini nazarda tutgan edi.

“O‘zbek tili qoidalari to‘g‘rusida bir tajriba. Birinchi kitob: Sarf” asari olti marta qayta nashr etilgan (1924–1930) bo‘lib, dastlab isloh qilingan arab yozuvida, so‘ngra esa lotin yozuvida chop etilgan. Tabiiyki, birinchi va oltinchi nashrlar o‘rtasida anchagina farqlar mavjud. Lotin yozuvidagi 4000 nusxada chop qilingan so‘nggi — 1930-yil nashrini avvalgi nashrlar bilan solishtirganda ayrim o‘rinlar mukammallashtirilgani, bi-

roq zamona talabi bilan qator o'zgartishlar qilinganini kuzatish mumkin. Ayni asarda Fitrat domla o'zbek tilining lug'at tarkibi, fonetikasi xususida ham so'z yuritadi, biroq asar, asosan, morfologiya va morfemika masalalarini o'zida aks ettiradi. Ayrim so'zlarning etimologiyasi xususida Fitratning qarashlari ham ushbu darslikdan o'rin olgan. E'tiborlisi shundaki, darslikning ilk nashrlarida o'zbek tilida 9 ta unli mavjudligi haqida fikr yuritilib, ularning nazariy asoslari va misollari keltirilgan bo'lsa-da, so'nggi — 1930-yildagi nashrida rus tilshunoslari A.Kononov va boshqalarning ta'siri bilan o'zbek tilida 6 ta unli mavjudligi qayd etilgan. Ushbu nashrlarni qiyosan o'rganish natijasida Fitrat asarlarining ilmiy ahamiyatini va zamona bilan yuzma-yuz kelganini tushunish mumkin.

Fitratning "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Ikkinchi kitob: Nahv"

asari beshmarta qayta nashr etilgan bo'lib, birinchi nashri 1924-yilda amalga oshirilgan.

Ma'lumki, asarning so'nggi — beshinchi nashri lotin yozuvida chop etilgan edi. Tilshunoslikka doir ayrim atamalar, Fitrat qo'llagan istilohlar bugun iste'molda emasligini nazarda tutgan holda ushbu darslikni mavjud o'zbek tili sintaksisiga oid qo'llanmalar bilan solishtirilib chiqilishi tufayli o'zbek tilshunosligi XX asrning 20-30-yillaridayoq qanchalik rivojlanganini kuzatish mumkin.

FITRAT — ADABIYOTSHUNOS.

Adabiyotshunoslik ilmi tarixan ilmi adab tarkibiga kiruvchi fanlar asosiga qurilgan bo'lsa-da, XX asr boshlaridan asosan uch o'zanda: adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid va adabiyot tarixi yo'nalishlarida davom etgan. Fitratning she'riyat nazariyasi masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy fikrlari uning adabiy-badiiy asarlari qatiga singgan bo'lsa-da, sof nazariy

muammolardan bahs etuvchi birinchi maqolasi **“She’r va shoirlig”** 1919-yili yaratilgan²⁴. Hali bu davrda chuqur nazariy umumlashmalarga molik ilmiy asarlar yaratilmagan, endigina yangi tizim maktablari uchun adabiyot fanidan darslik-kitoblar paydo bo’la boshlagan edi. Keyinroq, 20-yillarning boshlarida Cho’lponning **“Sho’rolar hukumati va sanoe’i nafisa”**, A.Sa’diyning **“Go’zal san’at dunyosida”** maqolalari, Vadud Mahmudning **“Bugungi she’rlarimiz va san’atkorlarimiz”** turkum maqolalari vujudga keldi. Lekin bular Fitratdan ancha keyin yaratilgan va nazariy masalalar bobida Fitrat maqolasida ko’ringan yuksak did, chuqur fikr, go’zal til va betakror uslub darajasida emas edi. Bu haqda Abdulhamid Cho’lpon: *“Chig’atoy gurungi” asosini mahkam qurganligi va chiziqni to’g’ri chizganligi uchun o’zi yo’q (bo’lib) ketsa*

²⁴ Fitrat. She’r va shoirlig. // Ishtirokiyun. – 1919. – 24-iyul, 29-30-avgust (Iqtiboslar shu manbadan olindi).

ham, o'zbekning yangi adabiyotida yangi, porloq, sharafliq sahifalar ochdi va ochmoqda davom etadir" deb yozgan edi²⁵.

Har bir hodisaga uning vujudga kelishi tarixidan, ya'ni istorizm tamoyillaridan kelib chiqib baho berishga o'rgangan Fitrat bu maqolada ham she'r nazariyasidan bahs yuritishdan avval turkiy xalqlarda she'rning paydo bo'lishi va ular she'r deb qanday san'atni tushunganlaridan so'z ochadi: "*She'r va shoirliq degan so'zlar bizda yangigina narsa emas. Turk ulusi o'z borlig'ini ochung'a ko'rsatkali she'r va shoirliqni bilibgina kelganlar*". Dunyodagi eng ko'hna xalqlardan sanalgan turklarning arab istilosiga qadar she'rsizligidan gapirmoq uni bir madaniyatsiz, o'tmishi yo'q xalq deyish bilan teng edi. Shuning uchun Fitrat dalillar asosida: "*Madaniy bir ulusning*

²⁵ Cho'lpon. Tarixning zararli takarruri. // Turkiston. — 1924. — 14-oktabr.

she'rsizlig'in so'ylamak esa, gapurub turgan bir kishining jonsizlig'ina ishonmak kabi kulunchdir", deya oddiy haqiqatni bayon etish bilan "turklar musulmonliqdan burun ham buyuk madaniy dong'li bir kun kechirganlar", "turklarning musulmonliqdan burun ham o'z she'rlari, shoirlari, adabiyotlari bor edi" degan xulosani puxtalab olgandan so'ngina she'rga berilgan mavjud ta'rif-u tavsiflarni o'ziga xos tarzda "taftish" qiladi: "So'nggi arab adiblari she'rni "kalomi mavzuni muqaffa", deya ta'rif qila edilarkim, bu vaznli, qofiyali gap demakdir. Bizning shoirlarimiz ham (she'rni. — H.B.) shul bino qabul etadilar. Yetti sakkiz so'zni bilgili bir "vazn"da tizib, ketinda bilgili bir so'zni "qofiya" qo'ymoq bilan she'r orasinda yerdan ko'kkacha ayirma bordir". Bu bilan olim she'rga to'g'ri anglatma berish uchun uni o'tkinchi, noo'rin ta'rif va tavsiflar sirtmog'idan qutqarmoqchi bo'ladi.

Bunga erishish uchun esa, avvalo, yuqorida eslatiladigan adabiyot yo'llaridagi eng katta "hunarimiz" sanalgan taqlidchilikdan, Fitrat iborasi bilan aytilganda, "iyaruvchilikdan turk she'rining boshini saqlamoq lozim". Chunki **"Bedil. Bir majlisda"** (1923) badihasida yozilganidek, "Insonlarning tabiatlarida yerlashib qolg'an bir-birlariga ergashmak haqiqat yo'lining qaroqchisidir. Insonlik dunyosidagi ko'p iste'dodlar (shul taqlidchilik sababli) ishga qo'yilmay qoldilar... Vaqtlarini taqlid orqasinda yo'qotmoqlari sababli bular bilan haqiqat orasiga shunday bir qalin devor tikilgandurkim, topib yoqalarini yirtmoq bilan uning tomonga yo'l ocha olmaylar". Shuning uchun ham ta'rif shunday bo'lishi kerakki, u taqlidga o'z bag'ridan joy bermasin. "Vazn va qofiya"ga asoslangan ta'rif esa, muayyan ma'noda taqlidga yon berishlikdir. "Holbukim, she'r boshqa, "qofiya" bilan "vazn" boshqadir.

O'yla (unday bo'lsa. — H.B.) she'r nadur?" — deb savol qo'yadi olim va uning javobida esa, "she'rda kishilarning qonini qaynatg'uvchi, singirlarini o'ynatg'uvchi, miyasini titratg'uvchi, sezgusini qo'zg'atg'uvchi bir kuch, ma'naviy bir kuch bor. Shunday bir kuchi bo'lmagan so'z "vazn" va "qofiya"si bo'lsun, she'r bo'la olmaydur" degan hukmga keladi. Demak, Fitrat ta'rificha, she'r taqliddan ayrilgandagina uning qalbida yotgan pinhoniyy quvvat — "ma'naviy kuch" yuzaga chiqadi, ayni shu holatning o'zi she'rning haqiqatidir. "Taqlidgo'y nazmchilar esa, "vazn" va "qofiya"si bo'lgan turli ma'nosiz so'zlarning sharafiga ishongan sayin she'rning haqiqatidan uzoqlashib qoldilar... Biz ham she'rni "vazn" va "qofiya"dan iborat deb bilsak, chin she'rga yaqinlasha olmaymiz. Chin she'r yurak sezgularini ko'rsatmakdir. Vazn va qofiya esa, so'zning bezaqidir".

Fitrat ustuvor qilgan she'r ta'rifidagi bu nozik jihatlar Sharqning mashhur she'rshunos allomasi Nizomiy Aruziy Samarqandiyning "Shoirlik shunday san'atki, bu san'at orqali (shoir) hayajonlantiruvchi tushunchalar hosil qiladi va ta'sirchan qiyoslarni bir-biriga ulaydi"²⁶ so'zlariga yaqin keladi. Shoir o'z yurak sezgilarini she'r vositasida tashqariga chiqarib, hayajonlantiruvchi tushunchalar hosil etar ekan, avvalo, tashqi hayot shoir tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishi mumkin ekaniga e'tibor qaratiladi: "Bilamizkim, har birimizda jon va ongimizni tegramizdagi narsalar va hodisalardan chorlantirib (*darak berib*. — H.B.) turg'uvchi besh sezgich — "havvosi xamsa" bordir. Jonimiz shul "besh sezgich" orqali dunyoning o'z tegramizga erishkan narsa va hodisalarini bilib turar va har birisindan qayg'u, sevinch, qo'rquv,

²⁶ Nizomiy Aruziy Samarqandiy. Nodir hikoyatlar. — T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. — B. 31.

qizish, qaynash kabi sezgu va tuyg'ular oladir. She'r yuragimizda hosil bo'lgan ana shunday sezgularni hunarlicha so'zlar bilan boshqalarning yuragiga o'tkarmakdir. Shoir tegrasidagi narsa va hodisalardan oldig'i sezgilarni hunarlicha (san'atkorona) so'zlar bilan boshqalarga o'tkarmakchi bo'ladir. Kishining yuragi qancha "sezag'on" (mutaxassis) esa, shuncha yaxshi shoir bo'lar. Shoirliq uchun bir sezgi va u sezgini hunarlicha so'zlar bilan boshqalarg'a o'tkazg'uchi bir kuch kerakdir". Demak, shoir tashqi hayot ta'siri bilan tug'ilgan his-tuyg'ularini "boshqalarning yuragiga o'tkazmak uchun" she'rga murojaat qiladirki, bunda u "hunarlicha ishlangan", ya'ni san'atkorona topilgan va sayqallanib timsolga aylantirilgan so'zlar bilan ish ko'radi. She'ring qalbida yotgan kuch, ma'naviy qudrat "hunarlicha so'zlar" vositasidagina she'rxonga ko'chadi. Bu ko'chish jarayoni Fitratning ayni

shu yillari yozilgan **“Shoir”** she’rida shunday ifodalangandi: *“Shoir tabiatdan sirli, teran ma’nolarni... Chin yo’llar bilan izlar — topar, o’zi uchun saqlamas. Ularni yoz gulingning yaprog’idan to’kulgan so’zlar ilan bizga o’rab topshirar”*. Mana shu chin yo’llar bilan topilgan timsollarni bizga o’rab topshirish (yetkazish) jarayonida maqolada tilga olingan *“vazn”* va *“qofiya”* asosiy maqsad emas, balki she’r qalbidagi ma’naviy qudratni yetkazuvchi vositaga aylanadi. She’rdan maqsad *“vazn-u qofiya”* kabi shakliy vositalar emas, balki she’r qalbidagi haqiqatning she’rxonga ko’chishidir. Shuning uchun ham she’riyat sulтони Hazrati Navoiy aytganidek, *“So’zki fasohat zevaridin muzayyan emastur, anga chinlik zevari tamom bastur”*. Ya’ni, so’zning she’rga aylanishi uning fasohat ziynati bilan bezanishida emas, balki chinlik zevari (belgisi) ning mavjudligi uning uchun yetarlidir degan

xulosasini olim o'zi uchun ibrat bilgan. Lekin bu saboq bilan u cheklanmaydi, ushbu " mantiqi solim" ning jo'n qabul qilinishiga, ya'ni "she'r sezgi to'lqunlarini so'z orqali tashqariga to'kmakdur" qabilidagi ta'rif bilan to'xtalish, ifrot (noto'g'ri hukm) ga olib kelishi mumkinligini uqtiradi: "Bu qarash biroz ifrotdir. She'rning bir san'at bo'lganligini qabul etkandan keyin bu qarashning ahamiyati qolmas, ayniqsa, biz kabi chin she'r va san'at ochunidan uzoqlashganlar. Esimizga kelgan har bir so'zni yuragimizdagi "sezgu to'lqunlari" gumon qilib tashqarig'a ota bersoq, Tangri ko'rsatmasun, o'quvchilarimiz qocharg'a yo'l topolmay qolarlar!" Demak, yurakdagi har qanday hissiyot ham she'r deb tashqariga "otilavermas" ekan. Shoir ushbu ko'chirish jarayonida "musavvirona ko'rish, mutribona uqish, orifona idrok etish" qobiliyatlarini o'zida mujassam qilishi lozimligi bilinadi. Xuddi shu ma'noda Fitrat

bizga bir necha marta uqtirgan “she’r qalbidagi ma’naviy kuch” chuqur his etilgan, san’atkorona ishlatilgan so‘zlar vositasidagina, chin yo‘llar bilan ifodalangandagina she’rga aylinishi mumkin degan ta’rifga yetishgan bo‘lamiz.

She’r haqidagi haqiqatni anglab yetgandan keyingina Fitrat uning ifoda usullari — shakl, vazn, qofiya kabi istilohlarni tushuntirishga kirishadi: “She’r ikki turlidir: manzum she’rlar (tizim she’rlar), mansur she’rlar (sochim she’rlar). Tizim so‘zlar bilan she’r suylamak (mumkin) bo‘lgani kabi sochim so‘zlar bilan ham she’r suylamak (mumkin) bo‘lar. Sochim she’rlar (mansur she’rlar) uchun “vazn va qofiya” ning teyishligi bo‘lmas ham so‘zlarning hunarlicha (san’atkorona) bo‘lishi teyishdir”.

Fitrat quyiroqda yana yozadiki, “yuragimizdagi sezgilarni tasvir etmakchi bo‘lsak, qofiyasiz, vaznsiz bir she’r (sochim she’r) yozamiz. She’rimizni bezamakchi esak, vaznli,

qofiyali she'r (tizim she'r) yozarmiz", deyish bilan vaznsiz bir she'r deb mansur she'rlar-ni nazarda tutadi. Fitrat talqinidagi "vaznsiz she'r" iborasi bizning quloqlarimizga "er-kin", "sarbast", "verlibr" kabi atamalar orqali o'r-nashib qolgan she'riy nutqning ayni o'zidir. 30-yillar she'riyatida bu turli she'rlar "soch-ma" nomi bilan mashhur bo'lgani adabiyotimiz tarixidan boxabar kitobxonlarga ma'lumdir.

Fitrat maqolasi turk she'riyatidagi arab-eron she'r texnikasidan yuqtirgan taqlidgo'y-likka qarshi pafos bilan boshlangandi: *"Biz musulmonliqdan so'ng adabiyot yo'llarinda iyaruvchilikdan sira qutila olmaganimiz, adabiyot yo'llarinda eng katta hunarimiz ko'prak eronlilarga, undan keyin arablarga iyarmak bo'lgan"* deyish barobarida mana shu taqlidgo'ylikning muhim jihatlar kabi "vazn, qofiya"ga e'tiborni qaratgandi. "Vazn va qofiya" xususidagi bahs yakunida ham olim

shu fikrga qaytib, "Dunyo sahnasida iyaru taqlidning ro'lin hech bir millat biz turklar kabi ado eta olmagandir. Biz qaysi bir millatning qaysi bir narsasiga taqlid etmakchi bo'lsak, o'zimizning milliy ruhimizga qaramasdan taqlid etamiz... Holbuki, eron vazni bilan turkcha she'r yozib turk ulusida o'qutmoq mumkin emasdir. Forsi(y)cha dunyoning o'ynoqi va nozli so'zlaridandir. "Vazn" chanbarinda teatru sahnasindagi qizlar kabi o'ynab turadir. Turk so'zi esa og'ir, viqorli, gavdalidir... Eron vaznida turkcha she'r yozg'anlar ikki zararli ishka majbur qolarlar. Birinchisi, she'r orasinda ko'prak arabcha so'zlar kirguzalar. Ikkinchisi, "vazn" rioyasi bilan turkcha so'zlarning gavdasini buzalar. Eron vaznida she'r aytqon butun turk shoir-lari shul ikki kasalga tutilganlar, birortasi ham qutila olmag'an. Turkcha so'zlarning gavdasini buzmay olmoqg'a eng ko'p tirishkan shoir

Navoiydir. Navoiyning she'rlarinda buzulg'an so'z oz ko'runadir. Demak, Navoiy hazratlari bu ishning sovuqlig'ini anglamish, biroq o'zini butun qutqara olmamishdir".

Bu qisqa mulohazalar bilan cheklanmagan olim o'zining keyingi tadqiqot va qo'llanmalarida, **"Turk she'rining milliy vaznimiz bo'lg'an barmoq tizimi"** ("Adabiyot qoidalari", 1926) va arab-eron aruzining turk she'rida qo'llanilishi sirlari ("Aruz haqida", 1935) xususida yanada oydin, chuqur va izchil fikr yuritgan. Biroq 10-yillarning so'ngida e'lon etilgan ushbu mo'jazzgina maqola orqali she'riyat o'zining umuminsoniy hissiy sifatlari va o'ziga xos inja sirlari bilan birga milliy vazn "chanbarinda"gina takomil topishi mumkinligini aytib ulgurgan. Shoir o'z milliy hissiyoti, tili, uslubi kabi unsurlarni imkon darajasida o'z millatining dilini ko'rsatish uchun, u xalq iste'molida bo'lgan so'zlarni o'z holi-

cha, ularni (“gavdasini buzmay”) she’rga olib kirish shoirning ma’naviy bir yumushi ekanini juda ishonchli dalil va manbalar orqali isbotlab bergan. Shuningdek, shoir xalqi o‘z milliy madaniyati va zamonidan oziqlanib, millatning didiga, diliga va tiliga mos asarlar bitgandagina u millatning otasiga aylanishi mumkin ekanini bir maqola imkoniyatida tushuntira olgan-ki, bu nazariy aqidalar olimning Xoja Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur va Mashrab kabi mumtoz adabiyotimiz daholari haqidagi maqolalarida izchil davom etadi.

Bizningcha, san’atning mohiyati, turlari va kelib chiqishi xususida 20-yillarda nisbatan atroflicha fikr yuritgan olim Abdurauf Fitrat bo’ldi. Fitratning san’at haqidagi qarashlari uning adabiyotshunoslikka doir ishlarining tarkibiga singib ketgan. Xususan, olim **“San’atning manshai (kelib chiqishi)”** nomli maqola e’lon qildiki, bu ixcham

tadqiqot bilan Fitrat o'zining san'at nazariyasiga doir qarashlarini umumlashtirganday bo'ldi. Fitratning talqinicha: *“san'at lug'atda hunar demakdirkim, bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iborat. Bir kishi bir ishni o'ziga kasb qilib olib, shunga berilib yaxshi ishlab chiqaradurg'an bo'lsa, shu ish uning san'ati bo'ladur”*²⁷.

Fitratning bu qarashi zohiran markscha ta'limotdagi san'at asariga “ishlab chiqarilgan mahsulot” deb qarashga o'xshash tuyulsa ham, ta'rifdan muddao bu emas edi. Fitrat filolog olim sifatida “san'at” so'zining lug'aviy ma'nosiga (arabcha bu so'z ish, mehnat va mahsulot, hunar ma'nolarini beradi) e'tibor tortishdan ish boshlagan bo'lsa ham, uning mohiyatini anglatishda “ishlab chiqarilgan mahsulot”dan keskin farq qiluvchi “go'zal san'at”ning nima

²⁷ Fitrat A. Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari va havaslilari uchun qo'llanma. — T., 1926. Qayta nashri: — T.: O'qituvchi, 1995 (Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi: H.Boltaboyev). — B. 7.

ekanini juda oddiy usul bilan tushuntirish yo‘lidan borgan: “*Bu ma‘nodagi san‘atdan* (ya‘ni, hunarmandlik ma‘nosidagi. — H.B.) *tilakda boshqacha bo‘lg‘an san‘atlar ham bor bo‘lib, ular o‘z yaxshilig‘i bilan kishilarga ma‘naviy ta‘sir etadigan san‘at*”larga o‘tadi. “Olaylik, san‘ati tanbur chalish bo‘lgan bir kishining yaxshilab chaling‘an “Iroq” kuyi bu kishining san‘atidir. Biroq yaxshilab chaling‘an “Iroq” kuyining tilagi bilan yaxshilab yasalgan bir tanburning tilagi o‘rtasida kattakon ayirma bordir. Boshqacha aytg‘anda, “Iroq” kuyining yaxshilig‘i bilan tanburning yaxshilig‘i bir emasdir. Toboq, tanburning yaxshiliqlari bularning ishga yarag‘anliklaridir. “Iroq” kuyining yaxshilig‘i esa, kishiga ma‘naviy ta‘sir etmak, uning miyasini to‘lqunlantirmoqdir. Shuning uchun buning yaxshilig‘iga yaxshilik emas, go‘zallik deyiladir. Bunday san‘atlarga esa, “go‘zal san‘atlar” deyiladir”. Fitrat endi go‘zallik mohiyatini anglatish orqali

san'atning tugal ta'rifini bermoqchi bo'ladi: "Tirik bir kishining bir ko'p tilaklari, istaklari, umidlari, ehtiyojlari bo'ladir. Shularga erishsa sevinadir, erishmasa qayg'uradir... Har kim o'zining shodliqli-qayg'uli tuyg'ularini boshqalarg'a bildirmak, ularni ham shu tuyg'ular bilan tuyg'ulantirmoq istaydir". Lekin san'atning mohiyati bu bilangina belgilanmaydi, "buyuk bir shodliq ko'rgan kishi o'zining shod tuyg'ularini boshqalarga bildirib shodlig'ini orttiradir. Ulug' bir qayg'uga uchragan esa, o'z dardini boshqalarg'a o'tkarib o'zini ovuntirg'an bo'ladir". Zero, san'at asari faqatgina "ovut(n)moq" uchun yoki Cho'lponning "Sho'ro hukumati va sanoe'i nafisa" maqolasida tilga olingan "eski dunyoda bir qism xalqning zavqi, aysh va ishrati uchun ishlaydurg'an bir narsa" emas²⁸, balki "boshqalarni

²⁸ Cho'lpon. Sho'rolar hukumati va sanoei nafisa. // Ishtirokiyun. — 1920. — 7-noyabr.

ham o‘z tuyg‘ulari bilan tuyg‘ulantirishga” qaratilgan. Fitrat san‘at asari yaralishida ishtirok etadigan materiallarni, ya‘ni qurollarni tilga oladi. Uningcha, ayni ushbu san‘atni hosil qilishda ishtirok etadigan qurol va vositalardan kelib chiqqan holdagina, san‘atning turlarini farqlash lozim bo‘ladi: *“Mana shunday yurak, fikr, tuyg‘u to‘lqunlarini so‘z, tovush, bo‘yov, shakl, harf, harakat kabi tovarlar (materiallar) yordami bilan jonlantira chiqarib, boshqalarda ham shu to‘lqunni yaratmoq, go‘zal san‘atlar deyiladir”*.

San‘atning turlari masalasida Fitrat yuqorida eslatilgani kabi san‘at asarining yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lgan materiallar (tosh, tovush, so‘z va hokazo) hamda vosita-qurollardan kelib chiqqan holda dastlab uning qadimgi olti turini tasnif qiladi: *“go‘zal san‘atlar boshda: adabiyot, musiqa, raqs, rasm, haykalchilik, me‘morchilik kabi olti buyuk sho‘baga ajraladi”*. San‘atning bu turlari nisbatan qadimgi turlari bo‘lib, keyinroq vujudga kelgan kino san‘ati, teatr va

boshqa turlari mana shu ibtidoiy va birlamchi turlardan kelib chiqadigan hosila turlari ekani ham anglashiladi. Fitratning **“San’atning manshai** (kelib chiqishi)” deb nomlangan maqolasida bu qarashlarning yana ham izchilroq aks etganini kuzatish mumkin. “San’atning manshai degan bir masala madaniyat tarixining muhim bir nuqtasi bo’lgani kabi turli maslakli olimlar tomonidan izohetila kelgan ixtilofli bir bahsdir” deyilish barobarida san’atning asosiy turlarining kelib chiqishi masalasiga e’tibor qaratgan²⁹.

Fitrat san’atning “manshai” masalasini, qadimgi tosh asrga, ehtimol, undan ham burunroq davrlarga bog’lashining sababi ma’lum bo’ladi. “San’at insonlik tarixida juda eskidir. Ma’lumdirki, tarixdan burung’i (qabila at-tarix) zamonlarining eng birinchi davri yo’nitma tosh davridir”. Ayni mana shu davrda mog’ora (g’or)larda toshga o’yilgan suratlarga asoslanib, rasm san’atining qadimgi ekaniga

²⁹ Fitrat. San’atning manshai (kelib chiqishi) // Maorif va o’qitg’uchi. — 1927. 5-son. — B. 40–42.

shohid topgan bo'lsa, mana shu yo'lda raqs, musiqiy, adabiyot, haykalchilik va me'morlik san'atlarining vujudga kelishini ham diniy tuyg'ular tug'ulgunga qadar paydo bo'lgan moddiy turmush unsurlari bilan bog'lab tushuntirgan. Fitratning bu qarashlari zohiran moddiyun falsafasiga, ya'ni materializmga mos kelsa ham, bu qarashlar asosida Mirzo Bedil asarlari orqali anglaganimiz vahdati vujud falsafasining izlarini ham, "Farhod-u Shirin" dostoni to'g'risida" maqolasida ko'rsatilganidek³⁰, qadimgi Besutun tog'lariga chizilgan surat va barelyeflar tasviri orqali izohlab berilgan turk asotirlarining tamalini ham payqash mumkin. Faqat birgina maqola hajmida bayon qilingan nazariy fikrlar umumlashma tarzida aytilgan bo'lib, olimning adabiyotshunoslik, tarix, falsafa va musiqaga doir asarlari tarkibida uning san'at nazariyasiga doir mulohazalari tarqoq

³⁰ Fitrat. «Farhod-u Shirin» dostoni to'g'risida. // Alanga. — 1930. — 1-2-son.

holda aks etganini tasavvur etib, ularni “yig‘ib” talqin qilishga to‘g‘ri keladi.

Adabiy tanqidning XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligida eng hozirjavob va tezkor janrga aylanishida bu davr matbuotining xizmati e‘tiborga molik. 10-20-yillar davomida Turkiston matbuotida uch yuzdan ortiq vaqtli nashrlar mavjud ediki, bu holat davr adabiy tanqidchiligining tezlashishiga sabab bo‘lgan zohiriy omillardan hisoblanadi. Turkiston matbuotida XIX asrning so‘nggi o‘n yilligidan boshlab adabiyot, san‘at, teatr, til va imlo kabi masalalarga bog‘liq qator adabiy-tanqidiy va “tanishtiruv” vazifasini o‘z zimmasiga olgan ilk nazariy maqolalar e‘lon etila boshlagan. Ayniqsa, jadid matbuoti nomi bilan tarixga kirgan o‘nlab nashrlarda chop qilingan maqola va bu davr adabiyotshunosligining muhim tarkibiy qismlaridan sanalgan adabiy tanqid qanchalar faol bo‘lganini ko‘rsatadi. XX asr bosh-

lari va 20-yillarda matbuot sahifalarida nasriy va she'r kitoblariga, hatto ilmiy tadqiqot va alohida nashrlarga ham ko'plab taqrizlar e'lon qilingan. Biroq shuni xolis qayd etish lozimki, bu maqolalar ilmiy qamrovning sayozligi, professional tahlil tajribasining yetishmasligi, taqrizlarda ilk taassurot asosida fikr yuritish, dramatik asarlarga munosabatda sahna talqini va rollar taqsimoti bilan cheklanish kabi qusurlar ham uchraydi. Ular davrlar o'tishi bilan sekin-asta professional ilmiy tahlil sari rivojlana borib, tanqidning badiiy adabiyotning xolis tahlilchisiga aylanishida ma'lum ma'noda taraqqiyot qadamlari bo'lib xizmat qilgan. Ammo bu o'rinda bizni Fitratning adabiy-tanqidiy qarashlari aks etgan maqolalar hamda taqrizlari, ayrim hollarda esa, adib asarlariga tanqidning munosabati masalasi qiziqtiradi.

Fitratning bevosita adabiy-tanqidiy material sifatida o'rganilishi joiz bo'lgan ilk asari

“Zahhoki moron” asarining sahnaga chiqishi munosabati bilan yozilgan teatr taqrizidir³¹. Dramaturg G‘ozi Yunus “Shohnoma” dostoni asosida tartib bergan “Zahhoki moron” dramasi Shamsiddin Xurshidning shu nomli taqrizi³² e‘lon qilingan bo‘lib, munaqqid asarning e‘tiborli jihatlarini ko‘rsatish bilan birga asar syujetining zamonaviy emasligi, tomoshabinga hissiy va ma‘naviy oziq berishga ojizligi jihatidan uni tanqid qilgan. Bu taqrizdan so‘ng “Musofir” taxallusi bilan boshqa bir maqola yozilib, asosan, “Xurshid”ni qo‘llagan va “asar “Shohnoma”dan olingani uchun ham tomoshabinga ma‘naviy oziq bo‘lishi mumkin, biroq dramadagi voqealar zamon bilan bog‘lanmagan” degan ayb ham qo‘yilgan edi. Fitrat o‘z maqolasida mana

³¹ Fitrat. «Zahhoki moron» munosabati ila. // Ishtirokiyun. — 1919. — 18-oktabr.

³² Xurshid. Zahhoki moron. // Ishtirokiyun. — 1919. — 9-oktabr.

shu taqrizlarga munosabat bildirar ekan, avvalo, teatr taqrizining vazifasini oydin ko'rsatib bergan: "pyesa tanqid etilar ekan, undagi voqealarning, bo'lgan ishlarning bir-biriga munosabati va undagi kimsalarning ruhiy holatlarini ko'rsatuv yo'lidagi "hunar"larini muhokamaga tortmoq kerak. Voqealar bir-biriga munosib esa, mundagi qismlarning ruhiy hollari usta bir yozg'ich bilan tasvir etilgan esa, u pyesaning "tuzuk"ligiga hukm etib, artistlarning harakatlari(ng) tanqidiga kirishmak kerak"³³. Xuddi mana shu talabdan kelib chiqib, asar mavzuini va materialini sharhlab bergan, so'ngra "usta bir yozg'ich" bilan tasvir etilishi lozim bo'lgan bu afsonavor voqealar "Shohnoma"dan dramaga ko'chib o'tmaganini ham aniqlagan. Demak, Fitratning tanqidiy maqolasi xuddi ayrim ilmiy ishlari kabi ma'lum bir munaqqid-

³³ Fitrat. «Zahhoki moron» munosabati ila. // Ishtirokiyun. — 1919. — 18-oktabr.

lar tomonidan taqriz qilinib, biroq ular asar tabiatini anglab yetmay, ilk taassurot asosida yengil-yelpi tanqid ostiga olingandan so'ng ularga aniqlik kiritish maqsadida, asar muallifini noo'rin bo'htonlardan saqlash niyatida yozilgan.

Fitratning boshqa bir teatr taqrizi yuzaga kelishiga sabab bo'lgan asar G'ulom Zafariy (1889–1944)ning “Halima” musiqali drama-sidir. Asar o'z davrida katta shuhrat qozonib, nafaqat yurtimizda, xorijda ham o'ynalgan, biroq asarning matni nashr etilmagan. Bu asar haqida e'lon etilgan taqrizlarning ko'pchiligi uning sahna talqiniga bag'ishlangan edi. Shuningdek, 10-yillarning oxirlarida turk va rus dramaturgiyasining ta'sirida “opera”, “operetta”, “libretto” kabi istilohlar ham o'zbek adabiyotshunosligiga kirib keldi. Munaqqid Sotti Husaynning yozishicha, *“biz operettada murakkab uch turli san'atni ko'ramiz: mu-*

siqa, raqs, ashula va hajviy soʻz oʻyunlari”dir. Bu tushuntirishdan ushbu janrning ayni yillardagi holati haqida tasavvur olamiz. Fitrat esa, opera xususida shunday tushuntirish bergan: “Tizim yoʻsin (*sheʼriy usul. — H.B.*)da yozilib, kuylarga bogʻlanib, sahnada musiqa bilan ijro etilsa, unga “opera” deyiladir. “Opera” goʻzal sanʼatlardan musiqa bilan adabiyotni sahnada birlashtirgani uchun tomosha asarlari orasida muhim oʻrin tutadir. Ovroʻpa goʻzal sanʼatlar dunyosi operaga juda katta ahamiyat beradir. Bizda operachilik yoʻlida otilgan birinchi odim Gʻulom Zafariyning “Halima”-sidir”³⁴. Seziladiki, opera sanʼati 20-yillarning istilohida shu kungi isteʼmolidagi musiqali dramaning ayni oʻzidir. Faqat musiqali drama boshdan-oyoq “tizim yoʻsinida yozilgan matnni va uning musiqa bilan birlashmagidan hosil boʻlgan ashulani” toʻla uchratmay-

³⁴ Fitrat. «Halima» operasi haqida. // Ishtirokiyun. — 1920. — 29-sentabr.

miz. Shunga qaramay, 10-yillarda bir qator “opera”lar ozarbayjon dramaturgi U.Hojibekovning “Layli va Majnun” (Fuzuliy dostoni asosida) va Shamsiddin Xurshidning Navoiy dostoni asosidagi “Farhod va Shirin” asarlari sahnaga chiqqan edi. G‘ulom Zafariy asari esa, biror mumtoz matnga asoslanmay, zamonaviy mavzuda yozilgani, xalq ijodidan olingan ko‘plab kuy va qo‘shiqlar hisobiga boyitilgani uchun yangi original syujetli opera sifatida shuhrat topgan. Fitratning taqrizida bu janrning yuqoridagi kabi “tanituvi” berilib, so‘ngra asarning sahna talqiniga e‘tibor qaratilgan. Tomoshabinning didi va saviyasini, aktyor-ijrochilarning xususiyatlarini hisobga olgani holda yozilgani uchun ham asar o‘zbek tomoshabinining “o‘z opera”siga aylangan edi. Fitrat asardagi ayrim folklor namunalarning ijrosida “so‘z bilan musiqaning uyg‘unligi” yetishmagani, shunday go‘zal klassik musiqamiz asarda “butun borlig‘i bilan o‘zining rangini

ochibg'ina ko'rsata olmagani" ni ham qayd etib o'tgan.

Demak, Fitratning bu ikki taqrizi uning munaqqid sifatidagi faoliyatining barcha qirralarini ochib bera olmasa ham har holda olim adabiy tanqidning talab va ehtiyojlari darajasida fikr yuritgani, taqrizda, avvalo, badiiy asarning ruhini tushunishiga intilgani va o'z hamkasblari qatori siyosiy xatoliklar izlash yo'lidan emas, balki badiiy yetishmovchiliklarini anglatishni asosiy maqsad qilib olganini ko'rish mumkin...

Fitratning adabiy-tanqidiy maqolalari son jihatdan nisbatan oz bo'lsa ham ularda xolislikni, professional tahlil kurtaklari mavjudligini e'tirof etmay o'tolmaymiz. Hatto butun zamondoshlari tanqid deb "ur-kaltakchilik" mayliga berilgan paytlarida ham muallif shaxsiga tegadigan og'ir gap aytish, siyosiy ayblashlar bilan kaltaklash kabi holatlarni mutlaqo uchrat-

maymiz. Shuningdek, Fitrat ijodiga munosabatda ayni shunday “toshbo‘ron”lar davom etib turganiga qaramay, olim ularga javoban ohista, yuksak madaniyat va ilmiy salobat bilan bunday hujumlarni qaytarganining guvohi bo‘lamiz. Shunday “samimiy dardlashuv shaklida yozilgan” keskin munozara ruhi aniq aks etib turgan maqolasi “Yopishmagan gajaklar” deb ataladi³⁵. Ochiq xat tarzida yozilgan bu javob maqola aslida 20-yillar adabiy tanqidida J.Boybo‘latovning o‘zbek adabiyoti tarixini ilk bor izchil ilmiy tizimga solgan “O‘zbek adabiyoti namunalari (1-jild)” darslik-xrestomatiyasini tuzgan Fitratni ham, unga so‘zboshi yozgan Otajon Hoshimni ham bo‘ralab so‘kishdan boshlangan³⁶. Unda mumtoz ada-

³⁵ Fitrat. Yopishmagan gajaklar (J.Boybo‘latovga ochiq xat). // Qizil O‘zbekiston. — 1929, — 16-sentabr. Qayta nashri: // Yoshlik. — 1990, — 5 son. — B. 67–71 (Nashrga tayyorlovchi: H.Boltaboyev, so‘zboshi muallifi: O.Sharafiddinov).

³⁶ Boybo‘latov J. O‘zbek adabiyoti va chig‘atoizm. // Qizil O‘zbekiston. — 1929, — 13-, 14-, 15-may; ayni maqola rus tilida

biy merosni inkor qilishyo‘lidan borgan muallif Fitrat va O.Hoshimni siyosiy qo‘poruvchilikda ayblaydi. Fitrat esa, “javob xat”ida shunday yozadi: “Mening “O‘zbek adabiyoti namunalari”³⁷ atalgan arzimas bir asarim yaqinda uch son gazetni to‘ldirganingizni ko‘rib mamnun bo‘ldim, o‘qib ham chiqdim. Hamma gapdan burun Sizga tashakkurimni bildiraman. Lekin baxtga qarshi maqolangizni shunchalar kengaytirgansizkim, kengligi asl maqsadning yo‘qolishiga sabab bo‘lgan. Bizda bolalar orasida “Ko‘zim ko‘rmaydir” degan bir o‘yun bor: Bir bola ko‘zini qattiq bog‘laganidan keyin qo‘liga uzun bir tayoq olib, o‘rtada turadi. Boshqalar uning oyog‘idan olmoq uchun hujum qiladilar. Tayoqli bola tayog‘ini ko‘tarib “ko‘zim ko‘rmaydir” deb tez-tez aylanaveradir,

«SAAPP» jurnalida (1931,1-son) va alohida kitob holida (1932) ham chop qilingan.

³⁷ O‘zbek adabiyoti namunalari. 1-jild. Tuzuvchi: Fitrat. – Samarqand-Toshkent: 1928.

tayoq kimga to‘g‘ri kelsa, shunga tegadir. Maqolani yozganda sizning qalamingiz ham shul ko‘rmas bolaning tayog‘iga o‘xshagan: aylangan, aylangan, kimga to‘g‘ri kelsa, shunga tekkan, orada mening kitobim unutilgan, juda oz o‘rin olgan”³⁸. J.Boybo‘latov maqolasidagi “tezis”lardan biri shu ediki, go‘yo Fitrat va Otajon Hoshim “chig‘atoy adabiyoti proletar adabiyotiga asos bo‘ladi” degan da‘voni ilgari surmoqchi emish. Fitrat bu g‘oya mutlaqo asossiz ekanini qayta ta‘kidlab o‘tirmay, o‘zining majmuasida aytilgan so‘zlarini keltiradi va bunda hech qanday J.Boybo‘latov nazarda tutgan g‘oya yo‘qligi qanday ravshan ekanini anglatadi. Fitratning ilmiy asosli fikrlarini rad qilish tugul, uni tushunish salohiyatidan ham mahrum bo‘lgan “munaqqid” Fitrat so‘zboshi-sida aytilgan fikrlarning bosh-oyog‘ini kesib

³⁸ Fitrat. Yopishmagan gajaklar (J.Boybo‘latovga ochiq xat).

// Qizil O‘zbekiston. — 1929. — 15-sentabr.

tashlab, o'ziga yararli bir holda foydalangan ediki, sezgir olim bu holatni ham fosh qilib o'tadi. Ikkinchidan, "savdo sarmoyasi davri" istilohiga e'tiroz qilgan J.Boybo'latov, uning o'rniga o'z tavsiyasidagi istilohni taklif qilishni "unutib" qo'yib, Fitratning "tarjimayi holini taftish qilib, bir vaqtlar mutasavvif, panislamist bo'lganini turli dalillar bilan isbotlamoqchi bo'lgan" edi. Mana shu munosabat bilan olim o'z tarjimayi holining asosiy nuqtalarini bayon etib berganki, hozirgi kunda bu "tarjimayi hol" o'rta maktablarning darslik-majmualariga kiritilib, Fitrat hayotini o'rganishda muhim manba sifatida qaralmoqda³⁹. Biroq bu "tarjimayi hol" ma'lum ma'noda "tanqid-ayblov" ga javob tarzida yozilgani uchun undagi har bir nuqtani mutlaq haqiqat deb qabul qilmaslik kerak. Chunki unda "qora Buxoro", "kir mutasavvif" kabi qator davr bo'yoqlari aks etgan

³⁹ Ilk nashri uchun q.: Karimov N., Nazarov B., Normatov U. Adabiyot. 11-sinf uchun. – T.: O'qituvchi, 1994.

soʻz va iboralar uchraydiki, nohaq tanqiddan oʻzini himoya qilayotgan muallif sharoit taqozosi bilan bunday sifatlashlarni qoʻllashga majbur boʻlganini inobatga olishga toʻgʻri keladi.

J.Boyboʻlatov butun mumtoz adabiyotimizga, XX asrgacha qurilgan barcha osori atiqalarni “axlatlar” deb atagani maʼlum. Fitrat bu “soʻkinish”ga javoban, “azizim, Oʻrta Osiyoning olamga maʼlum bir madaniyati boʻlgan, bu madaniyatning turkiy asarlari qolgan. Bu asarlarning hammasiga birdan “axlatlar” deyish sizning muhokamangizning kirligidan chiqqan yangi bir istiloh boʻlsa kerak. Men oʻzimning yigirma yillik mutolaam, juda kuchsiz boʻlmagan kutubxonam soyasida shu yoʻlda ishlamoqdaman. Albatta, ishlarimda yanglishlar boʻluvi mumkin. Yanglishlarimni joy-joyi bilan koʻrsatish kerak, koʻzni yumub, ogʻizni ochib soʻkishning ilmiy foydasi yoʻq” deb javob bergan. Bir fikrni oxiriga yetkaza

olmagan munaqqid endi Fitratning Navoiy haqidagi qarashlarini taftish qilishga kirishadi; bu o‘rinda Navoiy devonidan baytlarni keltirib, shunday sharhlaydi:

*“Ashraquat min aksi shamsil ka’si
anvorul hudo,
“Yor aksin mayda ko‘r” deb jomdin
chiqti sado.*

Bu bizning tilda: ko‘ngilga quyosh aksidan (Xudo taolo tarafidan) hidoyat nurlari (vahiy) keladi. Xudo aksini e’tiqodingda ko‘r (Xudoning bor va birligiga inon) deb Payg‘ambar-dan “nido” keldi degan so‘z bo‘ladi...

*G‘ayr naqshidin ko‘ngul jomida bo‘lsa
zangi g‘am,
Yo‘qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik
g‘amzudo.*

Bu bizning tilda: Dunyoviy ishlarga berilib, ko‘ngil qoralansa, ey soqiy-ey pir, uni oqartmoq uchun Xudoga toat-ibodatdan boshqa

narsa yo'qdir degan so'z bo'ladi"⁴⁰. Fitrat bunday "kashfiyot"larga javoban: *"Navoiydan namunalar olganda mening tartib qilg'anim va sizning tanqid qilg'aningiz kitobdan olmaysiz-da Navoiyning o'z devonidan diniy mavzudagi baytlarni olasiz. Sizning u namunalaringizni ko'rgan kishi mening kitobimdan olganingizni gumon qiladir-da, menga hujumingizni qisman haqli ko'radir. Siz ham shuni istaysiz"*. Olim bu o'ta munofiqlik bilan uyushtirilgan bo'htonlarning chok-chokini ko'rsatib, fosh qilarkan, negadir maqolaning tugallanmay qolganini ham sezamiz. Bizningcha, maqolaning davomi keyingi sonlarga rejalashtirilgan-u, biroq u nashr etilmay to'xtab qolgan. Maqolaga ilova qilingan tahririyat pozitsiyasini aniq ko'rsatgan eskartmada "Fitratning bu maqolasi Chig'atoy adabiyoti masalasiga oid bir necha muhim paytlarni ochib

⁴⁰ Boybo'latov J. Ko'rsatilgan asar.

beradi, biroq bu bilan chigʻatoychilik unsurlari va ularning qoldiqlari bilan kurash tamom boʻlmaydi. Idora bu masala tevaragida ochgan muzokarani davom ettirishni lozim topadi” deyish bilan ham “chigʻatoizm unsurlariga qarshi kurash” shiori ostida adabiy boʻhtonlarga darvozasini keng ochib berganini ilgʻash mumkin. Bunga javoban Fitrat keyinroq “Boshqarmaga xat” sarlavhasi bilan yana murojaat qilishga majbur boʻlgan⁴¹. Bundan tashqari, 30-yillar matbuotida Fitrat qalamiga mansub ruscha maqolalar ham koʻzga tashlanadiki, bu bilan boʻlajak boʻronning olis shabadalari sezgan olim davlat tilida ham tanqidiy asarlar yaratib, davr ruhiga hamohang tarzda qadam tashlayotganini koʻrsatmoqchi boʻlgan. Xolislik uchun shuni eʼtirof etish joizki, “Ajoyib oʻrtalik” maqolasini avvalgi oʻzbek tilida yozilgan

⁴¹ Fitrat. Boshqarmaga ochiq xat. // Qizil Oʻzbekiston. — 1931. — 4-may.

ehtirosli, xolis tahlilchilik usulida emas, biroz zamonga qayishgan munaqqidning e'tiroflari sifatida qabul qilish mumkin.

* * *

Adabiyotshunoslik, kengroq ma'noda olib qaraganda, filologiya ilmlari mumtoz adabiyotda zohiran "ilmi adab" deb yuritilib, "sharqda o'n ikki qismdan — lug'at, sarf, nahv, maoni, bayon, aruz, qofiya, sanoe' kabi ilmlar turkumi" dan iboratdir⁴². Adabiyotshunoslikni filologiyaning barcha sohalarini qamrab olarlik darajada bunday keng tushunish, yolg'iz badiiy tafakkur taraqqiyoti bilan emas, Sharqda adabiyotshunosligimiz taraqqiy topgan moddiy-ma'naviy muhit xususiyatlari bilan ham bog'liq.

XX asr boshlari adabiyotshunosligi nisbatan murakkab hayot sharoitida tug'ilgani

⁴² Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi (X–IX asrlar). — Toshkent, 1993. — B. 17.

uchun uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan bir necha omillarni inobatga olib ish yuritishga to'g'ri keladi. Ulardan dastlabkisi, adabiyot ilmining o'z estetik tamoyillaridan kelib chiqqan holda, mumtoz adabiyotdagi "ilmi adab"ning merosxo'ri sifatidagi taraqqiyot shaklidir. Shu kabi badiiy va ilmiy adabiyotning nashr shakllari, uning o'z o'quvchilariga yetib borishi xalqning savodxonligi darajasi bilan, demak, tabiiyki, maktab va maorif tizimi bilan kesishadi. XX asrning 20-yillarida vujudga keladigan majmualar, she'riy to'plamlar ayni tazkirachilikdan o'sib rivoj topganligini va bizning tadqiqotimiz mavzui Abdurauf Fitratning **"O'zbek adabiyoti namunalari"**, **"Eng eski turk adabiyoti namunalari"** kabi majmualari misolida ko'rishimiz mumkin. Ayni holat Buxoro muhitida fors-tojik adiblari ijodidan tarkiblangan S.Ayniyning "Namunayi adabiyoti tojik" majmuasi orqali bu tajriba

fors-tojik adabiyotshunosligining shakllanishida ham qo'l kelgandir.

Mumtoz adabiyotshunoslikning bu murakkab janri XX asr boshlariga qadar taraqqiy etib, sekin-asta o'z o'rnini bu davr matbuotida, to'g'rirog'i, jadid matbuotida aks etgan ilmiy va tanqidiy maqolalarga bo'shatib berganining ham guvohi bo'lamiz. Bu jarayon 30-yillarning oxirigacha davom eta borib, o'zbek adabiyotshunosligi qat'iy estetik talablar andozasiga tushgan "Adabiyot nazariyasi"ga qadar takomil etgani va bu taraqqiyot davrining o'ziga xos bosqich-bekatlari mavjud bo'lgani aniqlanadi.

Mumtoz adabiyotdan meros olingan tazkira va risola janrlari ma'lum ma'noda taraqqiy etgan bo'lsa ham, ular oliy maktab vazifasini bajaruvchi madrasalarda o'qitiladigan asosiy fanlar dasturiga kirmagan edi. Ayrim manbalarda XIX asr boshlarida Buxoro madrasa-

larida “ilmi aruz”, “ilmi qofiya”, “ilmi tavorix”, “ilmi hikmiyya”, “ilmi hisob”, “ilmi munozara” kabi ilmlar madrasa dasturida mavjudligi ta’kidlansa-da⁴³, xonlikning barcha madrasalarida ham bunday emas edi. Bu kabi maorif tizimining muammolari o‘z vaqtida Ahmad Donish (1826–1897) kabi faylasuf va ulamolar tomonidan tanqid qilingan bo‘lsa ham, to jadidchilik olib kelgan maorif tizimidagi o‘zgarishlarga qadar turg‘un bo‘lgandir.

Millat ziyolilari oldida adabiyotshunoslik fanining eng muhim tarkibiy qismlaridan sanalgan milliy adabiyot tarixini yaratishdek ulkan vazifa turar ediki, bu sohada ham dastlabki “tarix”lar yaratish Fitrat kabi mumtoz adabiyotimizning nuqtadon mutaxassisining zimmasiga tushdi. Adabiyotshunoslikning har sohasida dasturulamal bo‘lib kelgan mumtoz adabiyot tajribasi ana shu sohada ancha

⁴³ Ayniy S. Tarixi inqilobi Buxoro. — S. 10-11.

nochor ediki, unga bu yo'nalishda to'la "suyanchiq" bo'la olmagan. Ayrim badiiy asarlar tarkibidagi faxriyalar, tarixiy asarlarning ayrim qismlari ("Boburnoma", "Abdullonoma" kabi) tarkibidagi fikrlar, yirik badiiy asarlarning "Debocha"lari (masalan, "Xamsa" kabi), ayrim ulug' shoirlar haqidagi manoqib-holotlar (Xondamirning "Makorimu-l-axloq" asari singari) mumtoz adabiyotida mavjud bo'lsa ham bevosita milliy adabiyot tarixiy taraqqiyot qonunlarini o'rganuvchi izchil tizimga asoslangan adabiyot tarixi, tan olish kerakki, hali yaratilmagan edi.

Fitrat o'zbek adabiyoti tarixini bir ilmiy tizimga solar ekan, folklor namunalari va eng qadimgi adabiyot yodgorliklaridan tortib o'ziga zamondosh bo'lgan adiblar ijodiga qadar izchil tartibda o'rganib, tizimga solib chiqqan. Ana shu ma'noda ulug' allomaning "Devonulug'otit turk" tarkibiga kirgan manbalarni

alohida tadqiq etib, "Eng eski turk adabiyoti namunalari" (1927) majmuasi "Adabiyotimiz tarixi uchun materiallar" rukni bilan e'lon qilindi. Ushbu majmuada Fitrat devon tarkibidagi barcha parchalarni o'rganib, ular muayyan bir "Alp Erto'nga" dostonining qismi, o'ttizdan ortiq xalq qo'shiqlari va ikki yuzga yaqin maqol, matal va aytimlarni mazmun jihatdan tasnif qildi. Bu bilan turkiy xalqlarining eng qadimgi yodgorliklarining milliy adabiyotimiz tarixidan o'rin olishi uchun zamin hozirladi. "O'zbek adabiyoti namunalari" (1-jild) majmuasida esa barcha og'zaki va yozma manbalarni ilmiy tizimga solib, adabiyotimiz tarixini manbalar bo'yicha yaratdi, "Qutadg'u bilig"dan "Boburnoma"ga qadar barcha yozma yodgorliklarni jamlab, ular o'zbek mumtoz adabiyotining bebaho namunalari ekanini isbotladi.

Bundan tashqari, "Qutadg'u bilig" asa-

rining Namangan nusxasini topib, ilmiy muomalaga olib kirdi va dunyoda mavjud uch qo'lyozmadan biri, hatto mukammali ekanini isbotladi. Xuddi shu kabi "Hibatu-l-haqoyiq" asarining muallifligi, muallif yashagan davr, asar taqdim etilgan hukmdor, uning matni, badiiyati haqida mukammal ma'lumot berdi.

Fitrat "Ahmad Yassaviy", "Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar" kabi ilmiy maqolalar yozgan hamda Yassaviy va Boqirg'oniy ijodidan ayrim namunalarni "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasi⁴⁴ga kiritgan. Bundan tashqari, olimning 1929-yilda bergan ma'lumotiga ko'ra, "O'rta Osiyoda tasavvuf tarixi" ismli bir kitob yaratmak uchun" harakatda bo'lgan⁴⁵, biroq bu kitob mamlakatda boshlangan "dindorlar va sharqshunos

⁴⁴ O'zbek adabiyoti namunalari. Tuzuvchi: Fitrat. — Samarqand-Toshkent, 1928. — B. 97–103.

⁴⁵ Fitrat. Yopishmagan gajaklar (J.Boybo'latovga ochiq xat). // Qizil O'zbekiston. — 1929. — 15-sentabr.

olimlarining qatag'oni (buni A.Soljenitsin "1937-yilgi qatliomga bosh tayyorgarlik" deb atagan edi) tufayli bu asar tugallanmay qolib ketgan. Ushbu kitobga kirishi rejalashtirilgan maqolalarning ayrim sahifalari 20-yillarning boshlarida o'zbek matbuotida ilk bor A.Sa'diyning "Yassaviy kim edi?" maqolasi paydo bo'ldi⁴⁶. So'nggi maqolalardan Fitrat o'zining boxabarligini ma'lum qilib, maqolaning boshlanishida shunday "Ahmad Yassaviy to'g'risida matbuotimizda bir-ikki yo'la gaplar bo'lib o'tgan edi, lekin ular quruq maxtashlar bilan anchagina falsafalardan to'ldirilgan" deb ishorat berib o'tgan edi. Olim "Ahmad Yassaviy" maqolasining ilk fasli ("Tasavvuf to'g'risida")da tasavvuf, uning kelib chiqishi, "vatani", tarqalish kengligi xususida ma'lumot berib, Xoja Ahmad Yassaviyning oriflik yo'lini bayon qilish maqsadi bilan emas, balki

⁴⁶ Inqilob. — 1922. — 2-son.

“adabiyot tarixini yozib turg‘ani munosabati bilan Ahmad Yassaviy bilan mashg‘ul bo‘lib” uni ulug‘ shoir va adib tasavvuf piri sifatida ko‘rsatdi. Yassaviyning shaxsiy va manqabaviy hayoti to‘g‘risida Fitrat ma‘lumot berdi, uning tarjimai holini “Devoni hikmat” namunalari asosida tikladi. “Devoni hikmat”dagi

Tuqq‘on yerim ul muborak Turkistondin,

Bag‘iring‘a toshni urub keldim mano...

Hayratlanib o‘z shahrig‘a qayta yondi,

Turkistonda mozor bo‘lib qoldim mano, —

baytlaridan kelib chiqib, Turkiston pirining Yassida tashkil etgan tasavvuf maktabining mohiyatini ochib berdi.

Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida dastlab maqolaning “Yassaviyning ta‘siri” faslida so‘z yuritgan bo‘lsa, keyinroq “Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar” nomli mo‘jazzgina ilmiy axborot yaratib, unda “Nafahotu-l-uns min hazarotu-l-quds” (Ab-

durahmon Jomiy)⁴⁷, “Futuhotu-l-makkiya”, “Kitobu-l-musomorot va-l-mulohozorot”, “Fususul-hikam” (Muhyiddin ibn al-Arabiyy), “Maqosidu-l-falosifa”, “Al-Iqtisod fi-l-e’tiqod”, “Ihyou ulumid-din”, “Kimyoyi saodat” (Abu Homid Muhammad G‘azzoliy)⁴⁸ va boshqa mutasavviflarning nazariy hamda munozir kitoblariga asoslanib, Faxriddin Ali ibn Husayn Koshifiyning “Rashahotu aynil-hayot”, Abul Hasan Muhammad Boqirning “Maqomoti Naqshband”, Olim Shayxning “Lama’ot”, Sayyid Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” singari tazkira va manoqib-holotlaridan kelib chiqib, Yassaviy izdoshlari XX asrga qadar faol ijod va ibodatda bo‘lganini anglatdi. Shu bilan birga “Boqirg‘on kitobi” nomi bilan 1906-yilda Qozonda bosilgan she’rlar birgina Hakim Sulaymon otaga mansub emas,

⁴⁷ Jomiy. Nafahotu-l-uns. — Tehron, 1976. — B. 371.

⁴⁸ Zayniddin Muhammad G‘azzoliy. Kimyoyi saodat. — T.: Kamalak, 1995 (Nashrga tayyorlovchi: M.Andijoniy, A.Kulohiy).

balki uning tarkibida “Shamsdan 24 parcha, hammasi 1058 misra’; Iqoniydan 19 parcha, hammasi 266 misra’; Qul Ubaydiydan 19 parcha, 334 misra’; Qul Ahmaddan 10 parcha, hammasi 238 misra’; Mashrabdan 10 parcha, hammasi 201 misra’; Xudoy(dod)dan 4 parcha, hammasi 64 misra’; Qul Sharifdan 4 parcha, hammasi 70 misra’; Faqiriydan 2 parcha, hammasi 28 misra’. Bulardan boshqa Hubbiy, Qosim, Tafiy(?), Fikriy, Nasihiy, G‘izoliy, Gadoli, Qul Sharafiy, Behbudiy, Bayzo Mochin, Toj kabi shoirlardan biror parcha bosilg‘an”⁴⁹ degan xulosa berdi.

Fitratning navoiyshunos sifatidagi dastlabki ishi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Qo‘lyozmalar jamg‘armasida saqlanayotgan “Insoniyat haqida Navoiyning fikri” nomli risolasi bo‘ldi. Risolaning “Podshohlar to‘g‘risida Navoiyning

⁴⁹ Maorif va o‘qitg‘uchi. — 1928. — 5-6-son. — B. 50.

fikri” faslida yozadi: “Podshohlikning buyuk dabdaba va ne’matlarini so‘ylab, podshoh bilan ulusning insonliq to‘g‘risida ayirmasiz va farqsiz bo‘lganlarini so‘ylaganda:

Bil munikim, sen dag‘i bir bandasen,

Ko‘pragidan ojiz-u afgandasan.

Ermas alar tufrog‘-u, sen nuri pok,

Xilqat alarga-yu senga tiyra xok, —

parchalari orqali podshohning “adl, insof va taqvo” yo‘lida ulusdan o‘ta olmaganini o‘ktamlik bilan ko‘rsatgan”. Fitratning talqinicha, hamma xalq Xoliq tomonidan barobar tufroqdan yaralgandir. “Sen pok nurdan yaraldim deb o‘ylama, chunki “nuri pok”dan yaralish faqat farishtalargagina nasib qilgan”. Seziladi-ki, risola, asosan, “Hayratu-l-abror” talqiniga bag‘ishlangan.

Fitratning Navoiy merosiga bag‘ishlangan navbatdagi maxsus maqolasi “Navoiyning forsiy shoirlig‘i ham uning forsiy devoni to‘g‘risida” sarlavhali maqolasidir. Hajman ixcham

bo'lgan bu maqola orqali Fitrat domla ilmiy muomalada "Devoni Foni" nomi bilan yurgan, lekin Navoiyga aloqasi bo'lmagan bir to'plamning muallifligi masalasini hal qilib berdi. Garchi uning hoshiyasida Navoiy mashhur baytlari keltirilgan bo'lsa-da, bu qo'lyozma kashmirlik shoir Mulla Muhsin Foni qalamiga mansub ekanini isbotladi. Bu bilan o'zbek navoiyshunosligini katta chalkashlikdan asrab qoldi. Fitratning "Farhod-u Shirin" dostoni to'g'risida maqolasi mumtoz adabiyotdagi mana shu syujetning vujudga kelishi, uning Nizomiy va Dehlaviy dostonlaridan o'rin olishi va Navoiyning asari nafaqat turkiyda yozilgani bilan, balki ham badiiyati, obrazlar tizimi, g'oyaviy mundariyasi, axloqiy-ta'limiy jihatlari bilan o'zigacha bo'lgan salaflaridan ustun ekanini isbotladi. Bu bilan tarixiy tipologiyaning adabiyotshunoslikda ilk qo'llanilishi orqali ilmda tengsiz natijalarga erishishi mumkin ekanini anglatdi.

Fitrat "Chig'atoy adabiyoti" maqolasida Markaziy Osiyo mumtoz adabiyoti xususida XVI asrga qadar bo'lgan manbalar haqida ma'lumot bergan bo'lsa, "XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash", "O'zbek shoiri Turdi", "Muhammad Solih", "Mashrab" kabi fundamental ishlarida XX asrga qadar kechgan o'zbek mumtoz adabiyotining umumiy manzarasini yaratdi, alohida ijodkorlarning adabiyot tarixidagi o'rnini belgiladi, tarjimayi holi noma'lum adiblarning ilmiy biografiyasini yaratdi, o'zbek tasavvuf adabiyoti tarixida qalandariylik tariqatining o'rnini ochiqsladi. Bulardan tashqari, Fitratning fors adabiyoti namoyandalari Firdavsiy, Umar Xayyom, Bedil ijodiga oid risola va tadqiqotlari fors mumtoz adabiyoti tarixidan muqim o'rin olgan ulug' adiblar ijodini chuqur o'rganish sari jiddiy qadam bo'ldi. Bu borada birgina "Bedil (Bir majlisda)" deb nomlangan badihasi orqali fikrimizni asoslash mum-

kin: “Bedil musulmon, islomdagi soʻl “vahdati vujud” chilardan... Bedil kim boʻlsa-boʻlsin, oʻz zamonidagi insonlik jamiyati koʻrinishidan rizo boʻlmagan, insonlarning koʻpchiligini “saodat”dan uzoq koʻrgan hamda shuning uchun qaygʻurgan bir faylasufdir... Ham bu hollarning sabablarini izlaydir... Taqlidchilik, rasm, odatchilik, din taassublarigʻa uchraydir. Bunlarga yuqorida koʻrganimiz kabi hujum qiladir”. Fitrat kitobxonlarni Bedil falsafasi sari yetaklashda xalqona, sodda yoʻlni tanladi va ilmiy asos sifatida yurtimizda keng tarqalgan bedilxonlik majlislaridan birini tasvirlash orqali bu murakkab ijod sohibi asarlari zamirida yotgan maʼno injularini terib, ularning mohiyatini oʻz zamoni nuqtayi nazaridan tahlil qilib berdi.

FALSAFIY-AXLOQIY RISOLALARI. 1914-yildan Fitratning “Rahbari najot” (“Najot yoʻli”), “Muxtasar islom tarixi”, “Oila”, “Mavludi sharif yoxud xayrul bashar” nomli falsafiy-axloqiy asar-

lari bosilib chiqqan. Garchi bu asarlar fors tilida bitilgan bo'lsa ham, ularda islomiy oilaning mohiyati, jaholatdan ma'rifatga olib boruvchi yo'l, muqaddas tariximiz hisoblangan payg'ambarlik tarixi kabi masalalarni ifoda qiladi.

Fitrat **“Oila yoki oilani boshqarish tartiblari”** asarida anglatishicha, “oilaning shakllanishi, ya'ni “ahli bayt” jamoasi, boshqacha qilib aytganda, xonadorlik (oila boshqarish)-ga asos solish bani Odam madaniyatining asosidir”. Maorif va maktabchilik sohasidagi Fitratning qarashlari birgina bu risolada emas, balki **“Munozara”**, **“Hind sayyohi bayonoti”** va boshqa ko'plab asarlarida ham aks etgan. Biroq ushbu kitobda ilk tarbiya o'chog'i bo'lgan maktab muammolari yetarli tahlil qilingan. Ota-onaning bu jihatdan vazifayi avvali bolani maktabga topshirdim deb qo'lni qovushtirib o'tirmaslik, farzand maktab yoshiga yetgach, maktab bilan bog'liq holdagi tarbiyaviy ishlarga erinmay tushuntirish bergan. Ushbu masalada mamlakat holini xarob

qilgan, istiqbolini xatarga solgan eng katta muammo — xotin-qizlar tahsili zaruriyatini o'rtaga qo'yadi. Chunki farzandning, umuman, millatning ilk tarbiyasi ayollar qo'lida kechadi. Ilm va idrok egasi bo'lmagan noqobil ona o'z farzandining ham qobiliyatsiz bo'lib qolishiga sherik bo'ladi, bas, shunday ekan, qizlar tahsili millat uchun eng zarur bo'lgan muammo darajasiga ko'tarilishi, xuddi erlar kabi ular tahsil va takomilga loyiqligi Qur'oniy dalillar bilan isbotlangan. Keyingi bobda ota-onaning farzand oldidagi huquqlari va farzandning ota-onaga vorislik burchlari haqida so'z yuritiladi. Bu sohalarning hammasida insof va iymon har bir musulmon farzandining ko'rki bo'lishligi uqtiriladi hamda yetimning yoki go'dakning haqqini eslatish bilan oiladagi tarbiyaga bag'ishlangan ushbu go'zal risola o'z nihoyasiga yetadi.

Hayot binosini qurishda va uning taraqqiyotida avlod tarbiyasining rolini ta'kidlar ekan, Fitrat uch narsa tansihatlik, sog'lom fikr va yaxshi axloq muhimligini ko'rsatadi. "Rahbari

najot” asarida ularning har biri alohida boblar orqali tahlil qilinadi. Soʻngra esa mana shu tarbiya uchun zarur boʻlgan turli xil vazifalarni olim jamiyat aʼzolari oldiga qoʻyish bilan oʻz risola-tadqiqotini yakunlaydi.

Fitrat domla ulkan tarixchi va sanʼatshunos olim sifatida ilm tarixidan oʻrin olgan. Uning **“Amir Olimxon va uning hukmronlik davri”** (1930) asari, **“Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi”** (1926) kitobi, **“Sharqda shaxmat”** (1927) va boshqa asarlari bu fikrning isbotidir. Qomusiy olim qaysi ilm sohasiga qoʻl urgan boʻlmasin, u oʻsha sohada fanning oʻz davri uchun yetuk bilimdoni ekanini koʻrsata oldi. Bugungi kunda madaniyatimiz, adabiyot va sanʼatimiz qanchalar taraqqiy etgan ekan, uning zamirida Abdurauf Abdurahim oʻgʻli Fitrat asarlarining oʻrni benazir va beqiyosdir.



HIKMATLI SO‘ZLARI



* * *

Agar kishi tijorat bilan mashg'ul bo'lsa, bu dunyoda farovon yashaydi, agar ibodat bilan shug'ullansa, u dunyoda oxirati obod bo'ladi, agar ilm bilan shug'ullansa, u ikki dunyo saodatiga erishadi.

* * *

Himmat saboti bo'lmagan xalqning haqqi hayoti yo'qdir.

* * *

Men sening uchun tirildim,
Sening uchun yasharman,
Sening uchun o'lurman.
Ey turklikning muqaddas o'chog'i!

Sening dunyoga sig'magan g'ayratingga ont ichamanki, Turonning eski sharaf va ulug'lig'ini qaytarmasdan burun ayog'laringda o'tirmasman.

* * *

Barcha aziz vatandoshlar, muhtaram dindosh birodarlar! Sizlarga xitob qilib kamoli odob bilan aytamanki, birodarlar, juda ko'b kunlarni va xiyla fursatni g'aflatda va tanbalikda o'tkaryapmiz. Bas, endi! Hozir g'aflat vaqti emas.

* * *

Islom — bizning dinimizdir, islom — bizning sharafimiz, islom — bizning saodatimizdir. Islom — bizning sarafrozlig'imiz boisi, islom — osoyishtalig'imiz sababchisidir.

* * *



Insonning boshqa maxluqotdan sharafigi shundaki, inson taraqqiyot va tanazzulga qobildir, boshqa hayvonlarda esa bu yo'q. Hakimlar inson taraqqiyoti va tanazzuli uchun uch olamni ajratganlar: hayvonot olami, jamodot olami va insoniyat olami.

* * *

Kimki o'z insonlik darajasini asl holatidan taraqqiy qildirsa, bu uning insonlik olamig'a kirishidir. Hakimlar uni INSON ataganlar.

* * *

Podshohlik — qon bilan sug'orilaturg'on og'ochdir, agar uni sug'orilib turmasa, qurib qoladir.

Ustimga insonlar emas, shaytonlar qo'shini kelsa, oyog'imga zanjirlar emas, jahannam

ilonlari sorilsa, yana sen sari chopaman. Dunyoning butun balolari boshimga to'kulsa, zulm cho'lining temir tikonlari ko'zlarimg'a kirsam, yana seni qutqararman, Vatan.

* * *

She'rda kishilarning qonini qaynatg'uvchi, singirlarini o'ynatg'uvchi, miyasini titratg'uvchi, sezgusini qo'zg'atg'uvchi bir kuch, ma'naviy bir qudrat bor. Shunday bir kuchi bo'lmagan so'z vazn va qofiyasi bo'lsin, she'r bo'la olmaydir.

* * *

She'r va shoirliq degan so'zlar bizda yangi narsa emas. Turk ulusi o'z borlig'ini ochung'a ko'rsatkali she'r va shoirliqni bilibgina kelganlar.

* * *

Binobarin, nafsingizni isloh qilishga muvaffaq bo'lsangiz, u vaqtda oila vazifasi siz uchun oson kechadi. Oila vazifasiga oilani tashkil qilish kiradi.

* * *

Bas, bu qadar g'afolat va tanballik, be-xabarlik va johillikda o'tirganimiz. Bu dini mubinimizning nobud bo'lishini, bu muqaddas vatanimizning poymol etilishini kamoli sharafsizlik bilan qabul qilganimizni na shariat qabul qiladi, na tariqat?

E'TIROF

* * *

Bu davrning ochiq fikrli yoshlaridan biri — Abdurauf Fitrat edi. Bu shaxs Buxoro talabalari ichida eng qobiliyatli va fozillaridan hisoblanar edi.

Sadriddin Ayniy

* * *

Fitratning asarlari har qancha taqiqlab qo'yilganiga qaramay keng tarqaldi, jamiyatning hamma tabaqalari orasida bu kitobchalar zo'r qiziqish bilan o'qildi, ular ustida bahs va munozaralar bo'lib turdi...

Vatanparvarlik she'rlar to'plami bo'lgan "Sayha"ni o'qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, shu bilan birga, rus hukumati ham ta'qib qila boshladi. Chunki bu she'rlar-

da Buxoro mustaqilligi g'oyasi birinchi marta yorqin shaklda ifodalab berildi.

Fayzulla Xo'jayev

* * *

Hozirgi o'zbek she'riyatida Fitratning xizmati uning tili va uslubida ko'rinadi, u she'riyatda arab va fors so'zlariga yo'lni berkitdi, o'zbek she'r tuzilishining rivojlanish yo'llarini belgilay borib, ko'pgina yosh shoirlarni o'zining uslubi va tili bilan ergashtira oldi, atrofiga yosh shoirlarni to'plab, ularga til va uslub yog'idan yo'l ko'rsatmoqdadir.

Abdurahmon Sa'diy

* * *

Fitrat adabiyotimizda ishq hayajonlarini yaxshi tasvirlaydigan bir muharrirdir. Uning har asarida shu ishq o'rinlari yuksak ma'no'larga boydir.

Vadud Mahmud

* * *

Agar biz shu adabiyotning Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy singari namoyandalari ijodiga nazar tashlasak, ularning o'z asarlari bilan mustamlaka sharoitida yashayotgan millatga nima kerakligini baland ovoz bilan aytganlarini ko'ramiz. Ular qoloqlik va nodonlikka, zulm va zo'ravonlikka qarshi, milliy birlik va taraqqiyot, erk va hurriyat uchun kurashning qudratli quroli ma'rifat ekanini anglab yetdilar va shu yo'lda izchil faoliyat olib bordilar.

Naim Karimov

* * *

Hijo vaznli va to'rtliklardan qurilmish zamonaviy o'zbek she'rining boshlanishida rus adabiyotining ta'siri juda ozdir... Zamonaviy o'zbek she'rining vujudga kelishda Abdurauf Fitrat 1918-yili tashkil etgan "Chig'atoy gurgungi" nomli ijodkorlar birligining foydasi katta bo'ldi.

Temur Xo'ja o'g'li

* * *

Fitratning "Abulfayzxon" asari — adabiyotimizda tarixiy mavzudagi birinchi drama. Unda tasvir etilgan voqealar bilan Fitrat zamonasi o'rtasida ma'lum yaqinlik bor

Begali Qosimov

* * *

Abdurauf Fitratning “Munozara” nomli asari o‘sha davrda usuli jadid maktablari-ning zarurati hamda buxorolik islohotchilar bilan qadimchilar o‘rtasidagi tortishuvlarga nuqta qo‘yish uchun yozilgan edi; asar faqat Buxorogagina emas, balki butun Turkistonda-gi jadidlar harakatiga ruh va kuchberishi bilan mashhur bo‘ldi.

Xisao Kumatsu

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. (Nashrga tayyorlovchi: prof. H.Boltaboyev). — Toshkent: Ma'naviyat, 2000—2008-yillar.
2. Aliyev A. Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat. — Toshkent, 1991;
3. Boltaboyev H. Abdurauf Fitrat. — Toshkent, 1992.
4. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. — Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Karimov N. Adabiyot va tarixiy jarayon. — Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2012.
6. Qosimov B. Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat. — Toshkent: Sharq NMK, 1994.
7. G'aniyev I. Fitrat, e'tiqod, ijod. — Toshkent: Kamalak, 1994.
8. Abdurauf Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. // Adabiyotimizning tarixi uchun materiallar. — Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2008.

9. Abdurauf Fitrat. O'zbek adabiyoti namunalari (I jild). — Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2012.
10. Fitrat. Aruz haqida (O. Hoshim tahriri ostida). — Toshkent: O'qituvchi, 1997.
11. Fitrat. Najot yo'li (o'zbek tiliga tarj. Sh. Vohid, G.Muzaffarzoda). — Toshkent: Sharq NMAK, 2001.

MUNDARIJA

Adib hayoti.....	4
Ijodi.....	15
Hikmatli soʻzlari.....	129
Eʼtirof.....	135
Foydalanilgan adabiyotlar.....	141

Ilmiy-ommabop nashr

ABDURAUFI FITRAT

Muharrir Saidmurod Xolbekov
Badiiy muharrir Muhammadxon Yusupov
Texnik muharrir Dilmurod Jalilov
Sahifalovchi Axtam Ro'zimurotov
Musahhih Nigora G'aniyeva

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.
2022-yil 20-mayda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{32}$. AcademyUz garniturasida.
Ofset bosma. 4,5 shartli bosma taboq. 5,25 nashr tabog'i.
Adadi 23 000 nusxa. 06-raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida

YOSHLAR NASHRIYOT UYI.
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

“HILOL NASHR” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Chilonzor tumani, So'galli Ota k., 5-uy.



YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



UZBEKISTON
YOSHLAR
ITTIFOQI

TURMA — YUGUR,
TINMA — TIRISH,
BUKILMA — YUKSAL,
HURKMA — KURASH,
QO'RQMA — YOPISH,
YO'RILMA — QO'ZG'AL...

ABDURAUUF
Fitrat

ISBN: 978-9943-6682-5-6



9 789943 668256